	v) <i>trixosrammani saalash:</i> Etishtirilean trixogrammani tezda dalaga tarqalisbini iloji bo'lmasa uni maisbiy sovutgichda (3-10°S barorat, 80-90% namlikda) 7-10 kun saqlash mumkin. Trixogrammani kuz, qish, paytlarida diapauzaga kiritib 6 oy davomida saqlash mumkin.	Muzlatkich	Trixogrammani saqlash 5 kg sitatrogadan 4 kg trixogramma. Jumladan 2,75 kg tovar, trixogramma 1,25 kg trixogramma qayta ko'paytirishga ketadi.

**Topshiriq.** Mavzudan yoritilgan preparatlarni diqqat bilan o'qing, so'ng “T-jadvali”dan foydalanib ularning afzal **va** kamchilik tomonlarini jadalga yozib chiqing.

*T-jadval*

<b>№</b>	<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklar</b>
1.		
2.		
3.		

**Nazorat savollari:**

1. Don kuyasini laboratoriyyada qanday ko'paytirilishini aytib bering?
2. Trixogrammani laboratoriya sharoitida ko'paytirilishini aytib bering?

**3. laboratoriya mashg'uloti Biolaboratoriyyada**

**brakonni ko'paytirish texnologiyasi biian**

**tanishish**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog'i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, lupa, hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O'rganish ob'ekilari:** Biolaboratoriya brakonni ko'paytirish texnologiyasini o'rganish.

**Ishni bajarish tartibi:** Brakoa (*Bracon hebetor Say*). pardaganotlilar turkumiga kiruvchi yaydoqchi xasharot. Bu entomofag g'o'za tunlami, beda tunlami, karadrina, kungaboqar parvonasi, makkajo'xori parvonasi va boshqa ko'plab kapalak qurtlarining tashqi paraziti hisoblanadi. Entomofagning lichinkalari zararkunanda qurtlari tashqi tomonidan turib oziqlanib qurtlarni oiishiga olib keladilar.

Brakon turlari ko'p bo'lib O'zbekiston sharoitida eng axamiyatli turi Habrobracon hebetor Say.

Tanasi jigarrang tusda ayrim xollarda ko'k rangda, mo'ylovi och jigarrang. Tanasi uzunligi 2,3-2,6 mm.

O'zbekistonda diapauzaga o'tgan imagolik xolida o'simlik qoldiqlari ostida g'o'za, sabzavot dalalari va bog'larda qishlab qoladi. Erta baxorda mart-aprel oylarida xavo harorati 13-15°S bo'lganda imagolari qishlash joyidan chiqadilar.

Imagolar begona o'tlar, bedazor va daraxtlarning gullarini nektari bilan oziqlanadilar.

Brakonni birinchi aviodi begona o'tlar va bedada o'tadi, so'ngra ular pamidor g'o'za, makkajuxori ekinlariga o'tadilar.

Havo harorati 27-32 °S, namlik 75-80% bo'lganda brakon 8-12 kun yashaydi. YOz oylarida qo'shimcha oziqlanmagan imagolari 3-4 kun yashaydi, gemolimfa bilan oziqlantirilganda 13-15 kun, uglevodlar bilan oziqlantirilganda 12-14 kun, uglevod va gemolimfa bilan oziqlantirilganda 20-25 kun yashaydi.

Xavo xarorati 28-30°S, bo'lganda qo'shimcha oziqlangan lta urg'ochi imago kuniga 10-30 gacha 32-3 5°S, bo'lganda 60 tagacha jami 250-300

Tabiatda bir mavsumda 9-12 avlod beradi. YAydoqchi Ita kcfask qurtiga 60 ta tuxum qo'yadi. Bir sutkada bitta yaydoqli 100-150 gacha qurtni chaqib shol qilib qo'yish mumkin.

tagacha

mum



qo'yadi,



12-rasm. Brakon xebetor. *Bracon hebetor* Say

parvonasiiga 20 tadan 60 ta tuxum qo'yadi. Tok qurtning 1 donasida 250 tagacha parazit lichinkalari bo'lishi mumkin. Otalangan brakon urg'ochilari tuxumidan ham erkak ham urg'ochi, otalanmagan tuxumlardan faqat erkak brakonlar chiqadi.

Brakon paraziti asosan o'rta va katta yoshdag'i qurtlami zararlashni xush ko'radi.

Bu entomofagni dalaga chiqarishda uning uchish qobiliyatini xam xisobga olish lozim. X.R.Mirzalievaning (1980) ma'lumotlari bo'yicha brakon dalada 30m x 30m sxemada qo'llanilsa yaxshi natija beradi. Ma'lumotlarga qaraganda sutkalik xavo harorati o'rtacha 28,3°S, shamol tezligi 5-7 m/sek bo'lganda urg'ochi parazit xar tomona birinchi kun 100 m, ikkinchi kuni 250 m, uchinchi kuni 350m, to'rtinchi kuni 400, beshinchi kuni 500 va oltinchi kuni 650 metrgacha uchib borishi aniqlangan. SHu sababli ko'sak qurtiga qarshi brakonni 1000 x 1000m sxemada chiqarish qulay deb topilgan. (B.P.Adashkevich va boshq., 1988).

Z.X.Saidovaning ma'lumotlariga qaraganda (1989) brakon Toshkent viioyatida tabiat sharoitida 9 avlod berib rivojlanadi. Qishlovdan chiqish aprel boshlariga, qishlovga lcetish oktyabming 3-dekadasiga to'g'ri keladi.

Brakonni bashorat ma'lumotlariga asosan 100 o'simlikda 1-2 gacha qurt paydo bo'lganda chiqarila boshlanadi. Agar 100 o'simlikda 1-2 qurt topilsa (Iga maydonda 1000-2000ta qurt) brakondan yaxshi samara olish uchun 10 kun oralab 3 marta 1:20 (1:15), 1:10, 1:5 chiqariladi. Bunda ita urg'ochiga 20ta, 10 yoki 5 ta qurt to'g'ri keladi (-jadval).

Agar birinchi avlod qurtiga qarshi brakon chiqarilmasa ikkinchi avlod qurt soni 100 o'simlikda 18-20ga etish mumkin. Bunda brakonni samarasi 75-80%ga tushishi mumkin.

Iga maydondagi qurt soni quyidagi formula bilan topiladi.

$$X = \frac{AB}{100}$$

Bu erda: X - 1 ga maydondagi qurt(tuxum)soni A -

o'simlik soni, bir gektariga B -

qurt(tuxum)soni, 100 o'simlikda

Masalan 100 o'simlikda 2 ta qurt kuzatilgan bo'Isa, 90sm ekilgan g'o'zada 110 ming ta o'simlik bor. Formula bo'yicha quyidagini olamiz.

100

Demak, 1 ga maydonda 2200 qurt bo'lar ekan.

1 chi marta yaydoqchi chiqarishda 2200 : 20 - 110 urg'ochi (brakon)da jinslar nisbati 1:1 (demak 110x2-220ta), ikkinchi marta chiqarishda 2200 : 10 - 220 (220x2-440ta) uchinchi marta 2200 : 5 - 440 urg'ochi yoki 880 ta ikkala jins chiqariladi(Mirzalieva X. Ma'lumoti bo'yicha).

G'o'za tunlamini har bir avlodiga nisbatan 3 marta parazit chiqariladi.

1 chi marta zararkunandani 1-2 qurti topilganda ikkinchi va 3 marta 7-10 kun oralab chiqariladi.

Brakon entomofagini mum kuya qurtlarida ko'payfirish va saqlasii

3-ja.avaI

Ish davomiyligi (kunlar)	Bajariladigan ishlar mazmuni	ish jixozlari	Ish bosqichlari
1.Brakon ozuqasi - mum kuva aurtini ko'paytirish			
1-2	<p>a) <i>mum kuvasa JSil ozuaa tavorlash:</i></p> <p>ozuqani barcha komponentlari yaxshilab aralashtirib 1 kun dimlab qo'yildi, ertasiga 120° xaroart 45 minut pishiriladi.</p>	<p>10 kg №1 ozuqa uchun 5ke kepakli un, 1,7 kg shakar, 0,9 kg margarin, 0,91 sut 0,7 kg meva/qoqi. Termostat yoki qozon vanna.</p>	<p>YOsh qurtlar uchun 10 kg mervali ozuqa (JF«1 ozuqa) tayyorlash.</p>
3-22	<p>b) <i>vosh mrtlarni boaish:</i> tavor bo'lsan №1(mervali) ozuqadan 10 ta 3 litri shisha bankalarga 1kg dan solinadi. Ustiga bir grammidan (lOta bankaga lOgrdan mumkuya tuxumi so limb) hankalar 30-35° S xarorat, 85-90% namlikda 3-4 yosh qurtlar paydo bo'lguncha (18-20 kun) saqlanadi.</p>	<p>10 ta 3 litrii shisha banka 10 kg №1 ozuqa, 10 gr mumkuya tuxumi.</p>	<p>Mum kuya qurtlarini 3-4 yoshgacha boqib parvarishlash</p>
22-30	<p>v) <i>aurt bosaishni sadokda davorn ettirish:</i></p> <p>tayyor bo'lgan 10 bankadan 9 tasiga qurtlar ozuqasi bilan 3ta sadokka solinadi va qurtlar brakon entomofagi va oltinko'zga ozuqa sifatida berish uchun №2(mervasiz) va №.3 (bug'doy qaynatmasi) bilan boqiladi.</p>	<p>3 ta sadok (tunuka yashik) yoki vanna №2 va №3 ozuqasidan 5-7 kg. №2 ozuqasi №1 ozuqasidan mervasi yo'qligi bilan farqlanadi. №3 ozuqasi 10kg bug'doy 5 kg shakar, 3 kg margarin, 3 kg olma qoqini 30 litr suv-dagi qaynatasidan iborat.</p>	<p>Qurtlari katta yoshgacha brakon ko'pavtirishga va oltinko'z uchun boqiladi.</p>

22-60	<p>s) aurtlardan mumkuva kavalaei va tuxum olish: 1 ta 3 litrli bankadaai qurtlar.</p> <p>ilgaridan 150 grammdan №2 ozuqasi solib qo‘yiJgan lOta 3 litrli bankaga bo‘linib solinadi kapalaklar uchib chiqquncha №2 va №3 ozuqa aralashmasi bilan boqiladi. Kapalaklar ucha boshlagach bankalar 1 bog‘lam (5dona) dan dosechka solinadi va xar kuni kapalaklar tuxumi yig‘ib olinib mum kuyani qayta ko‘paytirish.ga va trixogramma ko‘paytirishga ishlataladi.</p>	<p>10 ta 3 litrli әавка, lOta 3og‘lam dosechka, 5 kg №2 va №3 ozuqa aralashmasi.</p>	Mumkuyada n tuxum olish	
70-82	<p>a) mumkuva aurtlariini tavorlash:</p> <p>sadoklardan 4-5 yosh qurtiari terib olinib ichiga oldindan qog‘oz garmoshkalari solinib qo‘yilgan. 3 litrli shisha bankalarga 300 tadan solinadi. Bankalar qora mato bilan yopilib, qorong‘i joyda 4- 5 soat qoldirikdi. Qurtlar qog‘oz egatchalarga kirib pilla o‘ray boshiaganda bankalarga oldindan 2 kun qo‘shimcha oziqlantirilgan brakon (xar bankaga 100 tadan) imagosi solinadi. 10-12 kun davomida zararlangan qurtlardan yangi brakon imago lari uchib chiqadi. Brakonni rivojlanish uchun optimal xarorat 25-30°S nisbiy xavo namligi 65-80% bo‘lishi lozim.</p>	<p>3000 ta 3 litrli shisha ballon 3000 ta brakon, 0,3 kg asal</p>	<p>Brakon entomofagi ni olish (90000 quit X 5 brakon=45 0000 dona brakon: shundan 200000 dona urg‘ochi:20 00=100ga etadi.)</p>	
<b>3.Brakonni saqlash.</b>				
	<p>dibrakonni saqlash: brakon sovitgichda +8°S da saqlash mumkin. Buning uchun xarorat 27°Sdan 16°S ga tushiriladi, ichiga payraxa solingan bankalarga oldindan 2kun asal bi-lan oziqlantirilgan bralconlar tushiriladi. Banka qopqo-g‘iga asal surtilgan doka ilinib qo‘yiladi. Har 15-30 kunda brakon muzlatgichdan olinib 25°S da 2kun oziqlanti-rish so‘ngra xarorat</p>			

16°S ga tushirilib, bankalar y ana muzlatgichga

qo‘yiladi. Brakon ham gemolimfa ham asa!  
bilan oziqlansa 25-30 kun yashaydi.  
Oziqlanmasa 7-15 kun yashaydi.

**Nazorat savollari:**

1. Mum parvonasi qanday ko‘paytiriladi?
2. Entomofaglarni laboratoriya sharoitida ko‘paytirilishini aytib bering?

**Topshiriq.** Biologik vositalari va hasharotlami ko‘paytirish usullari bo‘yicha “Assesment” texnikasini bajaring

“Ассеcтiсiлi” техникасы (AccccMcrr yntm):	
1	
<b>тест</b> OrOT‘MHKjSafwp йилдм иечтн пплод в«ф»ди? A. 4 <sup>а</sup> § B. 5-6 т 3 - 4	МУЛММОЯИ тишникт& ^еншшк касаллишми? к^згитупч ил арнишг антагонистлрк асосвдшм башшрениратлнр
СИМПТОМ Биологик усу л». <b>QII</b>	АМАЛИЙ К?ИЙКМА . Tuffitiiil-ниомифаглнрг мисин
4. laboratoriya mashg‘uloti	

**Biolaboratoriyada oltmko‘zni ko‘paytirish texnologiyasi bilan tanishish**

**Kerakli jihozlnr:** Binokulyar, termostat, avtoklav, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, lupa. hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O‘rganish ob’ektlari:** Biolaboratoriyada oltinko‘zni ko‘paytirish texnologiyasini o‘rganish.

**Ishni bajarish tartibi:** Oddiy oltinko‘z hammmaxo‘r kushanda hisoblanib g‘o‘zadagi o‘simplik bitlari, tripslar, o‘rgimchakkana, tunlam kapalaklarining tuxumi va yosh qurtlariga qarslii qiron keltiradi.


Lichinkasi yirtqichlik qilib oziqlanadi. Imagosi yirtqich emas, ular tabiatda o‘simplik bitlari, shirinchalar, o‘simplik gullarining changlari, barg va mevalar ajratmalar bilan oziqlanadilar.

w O ‘zbekistonda oltinko ‘zlarning 12 dan ortiq turi bo ‘lib, biolaboratoriyalarda esa oddiy oltinko ‘z (Chrysopa carnea) ko ‘paytirilib ekinlarni zararkunandalariga qarshi qo ‘llaniladi;

♦ Oltinko 'z tabiatda 3-5 avlod berib rivojlanadi;



13-rasm. Oltinko'z lichinkasi iniagosi



14-rasin. Oltinko'z


*W Oltinko 'z tuxumi 3-4 kun (kuzda 5-6 kun), lichinkasi 10-12 kun, g'umbagi 6-8 kun rivojlanadi. Imagosi 30-35 kun yashaydi. To'liq rivojlanishi uchun 25-35 kun kerak bo 'ladi;*

**Φ** *Oltinko 'z uchun optimal harorat 25-30°S, nisbiy havo namligi 60- 65%;*


**Φ** *Oltinko 'z o 'rtacha 400-600 dona tuxum qo 'yadi;*

*Oltinko 'z lichinkasi yoshiga qarab kuniga: 50-60 ta o 'simlik bitini, 20 tagacha o 'rgimchakkanani qirishi mumkin, yoki 800 tagacha har xil hasharot tuxumlarini eyishi mumkin.*

*SHira, trips, o 'rgimchakkanaga qarshi 1:30 nisbatda (profilaktika uchun), g'o'za dalalariga 1:10, 1:20 nisbatlarda chiqariladi.*



15-rasm. Oltinko'z tuxumi va g'umbagi



Oddiy oltinko'zni mum kuyasida ko'paytirilganda pushtdorligi yuqori bo'lgan biomahsulot olish mumkin. Buning uchun birinchi navbatda biolaboratoriyada mum kuyasini to'g'ri ko'paytirishiga ahamiyat berish kerak, YA'ni, mum kuyasini ko'paytirishda havo harorati, havoning nisbiy namligi, ozuqaning tarkibi, uni berish muddatlariga amal qilish talab etiladi. Xona harorati 28-30°S va havoning nisbiy namligi 80- 85% bo'lishi optimal hisoblanadi. Oddiy oltinko'zni mum kuyasi va sun'iy ozuqa muhitida ko'paytirish texnologiyasi H.R. Mirzalieva (1986) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, buning uchun 3 litrli shisha.

balonlarga 100 grammdan №01 ozuqa solinib, ustiga katta yoshdagi mum kuyasi qurtlaridan 200-220 dona solinadi (mum kuyasi qurtlari ko‘paytiriluvchi sadoklardan olinadi). 10-12 kundan keyin 10-15% kapalaklar ucha boshlagach, shisha balonlarga №02 ozuqadan 150 gramm solinadi.

#### **Oltinko‘zni ko‘paytirishda qo‘Uaniladigan ozuqalar va ularning tarkibi**

4-jadval

Ozuqa №	Tarkibidagi mahsulotlar	%	Tayyorlash tartibi
01	1 .III nav bug' do y un i 2. Sut 3.Margarin 4.Achitqi S.Qand (shakar	56 20 2 2 20	Dastlab 2-5 maxsulotlar qand va margarin eriguncha (25-27°) aralashtiriladi. Keyin unga un qo‘shiladi va bir sutka aralashma quyib qo‘viladi. So‘ngra 5 sm kalinlikda patnislarga yoyilib 2 atm. bosimda, 45 daqiqa avtoklavga qo'yiladi.
02	1.Quritilgan mevalar (meva qo‘qi) 2.Qand (shakar 3.Suv	35 15 50	Qaynayotgan suvga shakar solinib 20 daqiqa saqianadi va unga meva qoqi aralashtiriladi (1 daqiqa qo'yilib keyin sovitiladi).

Kapalaklarning uchishi 50% dan oshganida shisha balonlarga 100 donadan oltinko‘z tuxumi solinadi. Tuxumdan chiqqan oltinko‘z

lichinkalari mum kuyasi tuxumlari va kapalaklaming qoldiqlari bilan oziqlanadi, Lichinkalar 7-8 kunda rivojlanib bo‘ladi va meva qoqilari. orasida g‘umbakka aylanadi. YAna 6-8 kundan so'ng, g'umbakdan oltinko‘zning etuk zotlari uchib chiqadi. Ulardan tuxum olish uchun mato tasmalari solingan 3 litrli shisha balonlarga 100 tadan terib solinadi. Etuk zotlar asal va tuxum aralashmasi hamda mum kuyasi qurtlarinmg gemolimfasi bilan oziqlantiriladi.

Topshiriq. Gurux talabalarini 2 ta guruxga bo‘lib “B/B/B//” jadvalini to‘ldiring.

<b>JS’»</b>	<b>Mavzu savolSari</b>	<b>Bilaman+ -</b>	<b>Bilishni istayman+ -</b>	<b>Bilib oldim+ -</b>
<b>1.</b>				
<b>2.</b>				
<b>3.</b>				

#### **Savollar:**

- 1.01tinko‘zni ko‘paytirish texnologiyasini aytинг.
2. Trixograrinanining qanday turlarini bilasiz?
3. Brakonni qollash normasini aytинг.
- 4.Ozuqa tayyorlashni aytib bering?
- 5 .Mum parvonasini ko‘paytirishni aytib bering?

#### **8» laboratoriya mashg‘uloti Mexanik kurash usuli vositalari bilan tanishish**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, lupa, hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O‘rganish ob ‘ektlari:** Mexanik kurash usuli vositalarini o‘rganish. **Ishni bajarish tartibi:** Mexanik usul deb zararkunandalarga qarshi kurashda turli xil moslamalardan foydalanishga aytildi. Meva daraxtlarining shtambiga aldamchi belbogMami bog‘lash ko‘pgina zararkunanda!ar yuqoriga o‘rmalab chiqishining oldini oladi. Bunga olrna mevaxo‘riga qarshi belbog‘ yordamida kurashish ham kiradi. Qishlab

**37**

qolgan boyarishnitsa va boshqa zararkunandalaming mini yig‘ishtirib oiish hamda tengsiz ipakchining tuxum to‘plarini qirtishlab olish ham mexanik usuldir. SHilliq qurt, chertmakchi va boshqa namsevar zararkunandalarga qarshi aldamchi salqin joylar yasash ham shular jumlasidandir. Paxtachilikda g‘o‘zani

g‘o‘za tunlamining tuxumi va yosh qurtlaridan ozod qilish maqsadida chekanka qilinganida cMlipilgan qismini daladan chiqarib tashlash, zarur bo‘lganda qurtlami qo‘lda terish ham mexanik usul hisoblanadi.

O‘simliklarning zararli organizmlariga qarshi mexanik tadbirlar sifatida ularni to‘planishiga, turib qolishiga, harakatlanishi yoki o‘simlikni zararlashi oldini oladigan vositalardan foydalaniladi. Bundan tashqari, o‘simlik qoldiqlari hamda hasharotlar uyasini yo‘qotish, o‘simlik tanasini eski po‘stloqlardan tozalash va boshqalar mexanik tadbirlarga kiradi. Zararli hasharotlarning to‘planislari yoki tuxum qo‘yishlari uchun joy tayyorlash uchun go‘ng, xassashak, daraxtlar to‘tqich belbog‘i va xazon g‘aramlaridan foydalaniladi. Bimday joylar oldindan zararlab qo‘yiladi yoki hasharotlar to‘plangach, ular turli yo‘llar bilan qirib tashlanadi.

Mexanik kurash tadbirlariga, shuningdek daraxtlaming qurigan va kasallangan shoxlarini kesish, yig‘vagan shox-shabbalami yoqib yuborish, meva chirish kasalligi bilan kasallangan mevalami terib olish va boshqalar kiradi.

Urug‘lami ekishdan oldin tozalash, ulardagi zararkunandalarni birmuncha kaxnaytiradi. Omborlarda saqlanayotgan mahsulotlarni quritib, ag‘darib va shamollatib zararkunandalardan tozalanadi.

Kemiruvchi zararkunandalarni yo‘qotishda qopqonlardan foydalanish ham mexanik kurash tadbirlariga misol bo‘ladi. Bu usulning insonga, tabiatga zarari yo‘q, samaradorligi yuqori, lekin og‘ir qo‘l mehnatiga asoslangan va serharajatdir,

#### **Nazorat savollari:**

1. Mexanik kurash usulining moxiyati?
2. Mexanik kurash vositalariga nimalar kiradi?

#### **9- laboratoriya mashg‘uloti**

#### **G‘o‘zani zararkunanda organizmlar va ularga qarshi kurash choralari**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH- millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirogvi, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, hasharotlar kolleksiyasi, qo‘l lupa

**Ishning bajarish tartibi:** G‘o‘zaning asosiy zararli organizmlarini o‘rganish. G‘o‘zada uchrovchi asosiy zararkunandalar: o‘rgimchakkana, ko‘sak qurti

(g‘o‘za tunlami), kuzgi (er osti) tunlami, g‘o‘za(poliz), beda(akatsiya), katga yashil bi.tl.ari (shiralar), tamaki tripsi, karadrina va h.k.

G‘o‘zaga zarar etkazuvchi asosiy begona o‘tlar: sho‘ra, it uzum, eshaksho‘ra, semizo‘t, kurmak. ajiriq, gumay, qamish, qo‘y pechak, yovvoiy gultojiho‘roz, salomalaykum va h.k.

**0‘rgimchakkana-G‘o‘zaning** ashaddiy zararkunandasi bo‘lib, 248 tur o‘simglik bilan oziqlanadi. SHundan 37 turi qishloq xo‘jalik ekinlari. 0‘rgimchakkana 160-600 tagacha tuxum qo‘yadi. 0‘zbekistonda 16-20 tagacha avlod beradi.




16-rasm. 0‘rgimchakkana: urg‘ochisi

Tamaki tripsi — bu mayda so‘mvchi zararkunanda. Asosan tamaki barglariga katta zarar etkazadi. Bundan tashqari g‘o‘za, piyoz, karam, kartoshka va bodringda xam uchraydi.

Tanasi 1 mm ga yaqin, shakli cho‘zinchoq, katta yoshdagи trips ikki j u ft ingichka tiniq qanotlarga ega. Qanotlari atrofida kipriksimon popugi bor. 0‘z rivojlanish davrida ular tuxumlik, lichinkalik (qurtlik), nimfa,

imago davrlarini o‘taydi. Tuxumi buyraksimon, uni barg tuximalariga quyadi. Lichinkalari nimfa va imagolarga o‘xshash, biroq ular kichikligi bilan farqlanadi. Nimfalar tuproqda yashaydi. Trips 15—20 kun qayot kechiradi, bu davrda urg’ochilari 90—100 ta tuxum quyadi.



**17-rasm. Tamaki tripsi:** 1 - hayotiy shaqlari: a-etuk zoti; b-tuxumlari; v- lichinka; g-nimfa; 2 - zararlangan g‘o‘za niholi, 3 - tashqi ko‘rinishi, 4 - barg ostidan ko‘rinishi.

Asosan, tripslarning etuk yoshdagilari qishlaydi, ba’zida esa nimfa lari yoki qurtlari xam qishlashi mumkin. Ular o‘simglik qoldiqlari ostida dalada, yo‘l va ariq yoqalarida qishlaydi.

Tripslar mart oyida qishlovdan chiqadi va begona o’tlarga xamda bedapoyalarga tushadi. Fo‘za nixollari una boshlashi bilan ularga uchib utadi va yosh nixollarning nozikusuv nuqtalariga yoki barglariga qo’nadi. Ular yosh barglami so‘rib, uni yirtilib ketishiga sabab buladi. Trips zararlagan go‘za nixoli o’sish va rivojlanishdan orqada qoladi, o‘simglikning poya bo‘g‘inlari nixoyatda qisqalashadi va majmxlanib qoladi,

G‘o‘za katta yoshda zararlansa, barglarining orqa tomonida kumushsimon yaltiroq dog‘ hosil bo‘ladi, keyinchalik u quriydi. G‘o‘zada trips butun yoz buyi uchraydi, lekin u faqat yosh nihollarni zararlash qobiliyatiga ega. Uvatlarda bahor (aprel-may boshlari) vaqtarda begona o‘tlarda trips miqdorining ko‘payishi, ularni g‘o‘za dalaiarida kelgusi yilda ko‘p miltdorda tarqaiishiga asos buladi.

**Kurash choralarini.** 1. Tashkiliy-xo‘jalik va agrotexnika tadbirlari araalgan oshiriladi.

2. Trips ko‘payadigan erlarda ekish oldidan chigitga samarali upalagichlar bilan (gaucho, dalucho, avalanche - 5 kg/t, gaucho-M - 8-10 kg/t) ishlov beriladi.

3. Bug‘doy ekiladigan maydonlaming kengayishi hamda g‘o‘za- bug‘doy almashlab ekilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan, g‘alla o‘rim-terimidan lceyin (iyun) g‘o‘zada tripsning soni keskin ortib ketishi mumkin. SHu bois chegaradosh g‘o‘za ekilgan maydonlami (hamda oradagi uvatlarni) oldindan kimyoviy ishiab qo‘yish lozim.

4. Tripslarga qarshi qo’llash uchun shiraga qarshi tavsiya etilgan insektitsidlardan foydalilanadi.

**Katta g‘o‘za shirasi** (*Acyrtosiphon gossypii* Mordv.) Ancha yirik hasharot bo‘lib, u to‘da (koloniya) hosil qilmaydi. Etuk zotining tanasi 3,5- 4 mm ga boradi. Rivojlanishning hamma bosqichlarida tanasi ko‘kish yoki sarg‘ish tusda, ko‘zlari qizil, oyoq uchlari qo‘ng‘ir tusli bo‘ladi. Oyoqlari va shira naychalari juda uzun, orqa oyoqlari qariyb 1,7 mm ga etadi. Qanotlilari qanotsizlaridan kichikroq bo‘ladi. Katta g‘o‘za shirasi g‘o‘za- poyada va yantoqzorda tuxum fazasida qishlaydi. U bahorda mayning ikkinchi yarmida g‘o‘za nihollarida paydo bo‘ladi. Yil davomida toiiq rivojlanish davrini kechiradi, yozda partenogenetik usulda (erkaksiz tirik tug‘ib) ko‘payadi, kuzda esa bitta jinsiy bo‘g‘in berib tuxum qo‘yadi. ICatta g‘o‘za shirasi g‘o‘zadan tashqari, mosh va loviyaga ko‘plab tushadi, begona o‘tlardan yantoqda ham uchraydi.

**Kurash choralarini.** 1. Tashkiliy-xo‘jalik va agrotexnika tadbirlari amalga oshiriladi.

2. SHiralaming erta bahorda rivojlanadigan uyalari yo‘qotiladi. Buning uchun ariq atroflari va uvatlami toza saqlash, foydali hasharotlar ko‘payish: i uchun qulay sharoit yaratish, zararkunanda ko‘plab urchish xavfi tug‘ilganda tutlarning novdalari kesib oiingach maxsus himoya qilish tadbiriarini amalga

oshirish mumkin. Buning uchun OVX purkagichlari yordamida. quyidagi insektitsid-akaritsidlar bilan ishlov beriladi: BI-58 (danadim), fozalon, politrin-K, siperfos va b.

Agarda amaliyotda «xonqizi», oltinko‘z kabi entomofaglar lichinka va etuk zotlarimng shiralarga nisbati 15-20/1 ga teng bo‘lsa kimyoviy kurash o‘tkazishga hojat bo‘lmaydi.

3. Tabiiy kushandalarning soni etarli boimay, har 100 ta bargga o‘rtacha 50 tadan. .ko‘p shira to‘g‘ri kelsa, tavsiya etilgan insektitsidlar yordamida himoya tadbiriarini o‘tkazish lozim.


Kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Den. et Schiff). Sug’oriladigan paxtachilik turaanlarida keng tarqalgan zararkunandalardan biridir. Uning qurtlari 34 ta o‘simliklar oilasiga mansub bo‘lgan yuzlab ekinlarga zarar etkazadi. (i’o’xa. beda, qand lavlagi, makkajo‘xori, g‘alla, moyli o‘simliklar va poliz ekinlari, shuningdek, pechalc, yovvoyi tojixo‘roz, sho‘ra, olabo‘ta kuzgi tunlamning eng xush ko‘rgan ozig‘idir. Kuzgi tunlam qurtlari unib chiqayotgan g‘o‘za chigitimi shikastlab, umg‘ pallalarini teshadi (18-rasm), ildizlarni yoki ildiz bo‘g‘zi yaqinidagi poyani kemiradi, ba’zan maysaning er ustki. qismiga ham zarar etkazadi.

SHonalash davrida, ya’ni g‘o‘za poyasining ostki qismi dag‘allashgan vaqtida, tunlam qurtlari ularni kemirishga ojizlik qiladi. SHu boisdan qurtlar ertagi ekinlarga qaraganda kechld ekinlarga ko‘proq zarar etkazadi. Mutaxassisislaming fikricha, g‘o‘zaning besh-olti chinbarg fazasidan keyin shikastlanmasligiga mazkur sabablardan tashqari oziqa biokimyoiy tarkibining o‘zgarishi ham sabab bo‘ladi. Qurtlar yoppasiga ko‘paygan yillari maysalar shu qadar siyraklashadiki, hatto bu ekinni qayta ekish zarur bo‘lib qoladi. G‘o‘za erta ekilganda katta yoshdagi qurtlar paydo bo‘lguncha besh-oltita chinbarg chiqarib ulguradi va shikastlanmaydi, chunki bundav g‘o‘zani qurt eya olmaydi. Kech ekilgan

g‘o‘zani tunlam qurtlari qattiq shikastlaydi. Kuzgi tunlam kechki ekinlardan makkajo‘xori va boshqa o‘simliklarga kuchli shikast etkazishi mumkin. Kuzgi tunlamning shikastlash belgilari va qanday zarar etkazishiga, shuningdek morfologik belgilariga qarab boshqa tunlam turlaridan ajratib olish mumkin.

Kuzgi tunlam kapalagining qanoti yozilganda qariyb 40 mm ga etadi. Oldingi qanoti sarg‘ish-qanoti esa oq tusda, to‘q ega. Oldingi qanotlarining o‘ziga xos xususiyatidir:

asosiga yaqin joyda qoramfir dog‘i, deyarli markazida undan biroz buyraksimon Buyraksimon va dog‘lari to‘q tusli o‘ralga



kulrang> orqa tusli tomiiarga dog‘li bo‘lishi qanotlarining ponasimon qanotining yumaloq va yuqoriroqda dog‘lari bor. yumaloq chiziq bilan


n. G‘ 18-rasm. Kuzgi tunlam (A. Blyuiner ma’lumoti bo‘yicha): a-l<sup>«</sup>palagi; b-tuxunslari; v-qurt zararlayotgan g‘o‘za niholi; g-qurt zararlagan igitdan unib chiqqan nihoi; d-tuproqdagi g‘umbagi.

o‘za

tunla mining kapalagi yirik, qanot yozganda 35-40 mm keladi, tanasining uzunligi 12-20 mm ga boradi (19-rasm). Tanasi oxrasimon sariqdan ko‘kish-sariq va kulranggacha o‘zgaradi. Oldingi qanotlarining markazida bittadan kichikroq yumaloq yuqoriroq‘ida esa bittadan yirik buyraksimon qoramfir dog‘lari bor. Orqa qanotlari



oldingilariga qaraganda ochroq, keng to‘q hoshiyali, o‘rtasida to‘q rangli oysimon dog‘lari bor. G‘o‘zaning guli, shonasi va ko‘saklami zararlaydi. Kapalaklarni oldingi qanotlari sarg‘ish kulrang tusda bo‘lib, ba’zan qizg‘ish qo‘ng‘ir yoki pushti, yoxud kO‘kish rangda tovlanib turadi. Xar bir o‘simlik o‘suv nuqtasiga bittadan tuxum qo‘yadi. Tuxumlari gumbazsimon. Xayoti davomida o‘rtacha 400 tadan 2000 tagacha tuxum qo‘yadi. qurtlarini tanasi och yashil, ko‘kisb sarg‘ish rangdan tortib, qoramitir ranggacha bo‘madi. Tanasining yonlari bo‘ylab to‘lqinsimon chiziqlar o‘tadi. O‘zbekistonning shimoliy tumanlarida 3-4 ta, janubiy tumanlarida esa 4-5 ta avlod beradi. Ko‘sak qurti kuzda qaysi o‘simliklarda oziqlangan bo‘isa, sliu o‘simlikka yaqin joyda g‘umbakiari tuproqning 10-15 sm chuqurligida qisblovga ketadi.



тухуми

курти

гумбаги


капалаги

#### 19-rasm. Ko‘sak qurtining rivojlanish bosqicilari.

Karadrsna tanasining bo‘yi kichikroq (11-13 mm), qanotlari yozilganda 23-24 mm keladi. Oldingi qanotlari qoramitir kulrang, qanot chekkalarini kulrang hoshiyali. Qanotiarining oldingi chekkalarida uncha katta bo‘limgan to‘q dog‘lar yaxshi ko‘rinib turadi. Qanotining taxminan o‘rta qismida buyraksimon qo‘ng‘ir dog‘ bo‘lib, atrofi to‘q-sariq g‘uborli, uning yonida ancha kichik yumaloq dog‘ bor, u zangsimon to‘q sariq tusli boiib, o‘rta qismi ajralib turadi. Orqa qanotlari oqish - kulrang, ularning chekkalarini va tomirlari kulrang va tuklari oq yoki sarg‘ish bo‘ladi. Karadrina qurtlari o‘simlik barglarini zararlaydi. Gamma



tunlami, o'tloq parvonasi ham shunday zararetkazadi. Karadrina havfli zararkunandalaridan bo'lib, vaqtı-vaqtı bilan nihoyatda ko'payib ketadi. Zararkunanda 70 turga yaqin ekinni zararlaydi. Uning yosh qurtlari o'simlik bargini qirtishlaydi, katta yoshdagilari esa kemiradi va barglami teshadi. U barg chetlarini ham kemiradi. Zararkunanda ba'zan novdalar, hatto hosil organlarini ham zararlaydi. Karadrina 0'zbekistonda 6 martagacha avlod beradi, bir avlodni 30 kunga qadar rivojlanadi (20- rasm). Zararkunandaning qishki uyqudan chiqqan kapalaklari 2000 tagacha. keyingi bo'g'in kapalaklari esa 300 dan 600 tagacha tuxum qo'yadi.



**тұхуми**

**курти**

**гүмбаги**

**капалаги**

**20-rasm. Karadrinaning rivojlanish bosqichlari.**

#### **G'o'za ekinlarining asosiy zararli organizmlarini o'rgaaib quyidagi B/BX/B**

#### **JADVALI jadvalini to'ldiring**

Mavzu savollari	Bilaman + -	Bilishni istayraan+	Bilib oldim+ ■
G'uza zararkunandalar turlari			

2. Kuzgutunlamning zarari
3. Karadrinaning zarari
4. G'uza tunlamining zarari


#### **Nazorat savollari:**


1. G'o'zaning zararli organizmlarini ta'riflang?
  2. G'o'za tunlamining tashqi tuzilishi qanday?
- S.Karadrinaga ta'rif bering?

## **10- laboratoriya mashg‘uloti G‘alla va dukkakli ekinlarni zararli organizmlar va ularga karshi chorals ri**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH-millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotom.etr, hasharotlar kolleksiyasi. qo‘l lupa, tarqatma material

**Ishning bajarish tartibi:** Bug‘doy tripsining bo‘yi: erkaginiki 1,2- 1,3 mm, urg‘ochisiniki 1,8-2,2 mm keladi. Tanasi ingichka, tanasining so‘ngi segmenti naysimon cho‘zilib, orqa uchi biroz toraygan, old ko‘kragining orqa tomoni kengaygan. Qanotida tomirlar yo‘q, oldingi qanotining o‘rta qismi boshqa tripslarniki singari biroz toraygan, qanotining chetlarida hoshiyasi bor, mo‘ylovi sakkiz bo‘g‘imli. Etuk tripsning tanasi qora yoki to‘q qo‘ng‘ir tusda, mo‘ylovining uchinchi bo‘g‘ini oqish, uchi biroz qo‘ng‘ir bo‘ladi (21-rasm). O‘zbekistonning hamma xududlaridagi g‘allazorlarda uchraydi. G‘allada boshoqlanish davri boshlanishi bilan etuk tripslar paydo bo‘la boshlaydi.

Lichinkalar boshoq qobig‘i ichiga kirib, qobiq va gul sbirasini. keyinchalik esa don shirasini so‘rib oziqlanadi. O‘simplildar dag‘allahib, donlar pishib, hosil yig‘im-terimga yaqinlashganda lichinkalar oziqlanishini tugatib tuproqqa tusha boshlaydi. Bug‘doy tripsi yiliga 1 marta avlod beradi.



21-rasm. Bug‘doy tripsi (a- imago), (b lichinka).

**Zararli xasva - *Eurygaster integriceps*** Put. YArim qattiq qanotlilar yoki qandalalar (*Hemiptera*) turkumining qalqonlilar (*Pentatomidae*) oilasiga mansub hasharot. Juda keng tarqalgan hasharot bo‘lib, dunyoning barcha g‘alla ekiladigan mamlakatlarida uchraydi.



4

22-rasm. Zararli hasva: 1,2 - etuk zotlari bug‘doy boshog‘ida, 3 - dalani nazorat qilish, 4- havo yordamida ishlaydigan motorlik osma purkagichlar bilan samarali ishlov berish natijasi

**Tashqi ko ‘rinishi.** Voyaga etgan zararli xasvaning bo‘yi 10-12 mm keladi (22-rasm). Tanasining rangi sariq yoki sargish-kulrang, sirti marmarsimon naqshlidir. Oldingi ko’kragining keyingi yarmi oldingi yarmidan ko‘ra oqishroq. Qalqonining tubida ikkita oqish dog‘i bor. **Bu** hasharot uchun qalqonining qorni oxirigacha etib yaxshi rivojlanganligi xosdir. Qalqonining keyingi uchi oval shaklda, qanshari (qalqoni) boshining oldingi uchigacha etib boradi. Boshining old tomoni to‘mtoq, bo‘yi eniga teng. Urg‘ochi zotlarining qorin oxiridagi segmenti uch juft plastinkalardan, erkaklarida esa bitta yirik plastinkadan iborat. Tuxumlari bochkasimon bo‘lib yashilroq rangda, kattaligi 1,0-1,1 mm keladi.


47

Tuxumdan chiqqan lichinkalar deyarli yarim yumaloq shaklda, sarg‘ish-qo‘ng‘ir tusda boiadi, ammo kattalashgan sari bo'yiga cho'zilib, rangi biroz

oqaradi, qanoti bo Mm ay di. Ikkinchı yosbdan boshlab lichinkalarda sassiq bid chiqarish bezlari rivojlana boshlaydi. Beshinchı yoshga kelib xasvaning uzimligi 8-10, kengligi 6-6,5 mm ni tashkil qiladi, qanotlari rivojlana boshlaydi, etuk zotga aylanishdan oldin og'irligi 97-110 mg ga etadi.

Zararli xasva g'allaning unib chiqish, tuplanish, nay tortish, boshoq torti sh va pish ish fazalarida zarar keltiradi. Zararl i xasva voyaga etgan holda, asosan tog\* va tog\* oldi xududlarida, o'rmon yoki mevali bog'lardagi daraxtlar ostida, hamda dala atroflarida, ariq zovurlar yoqalarida toshlar yoki o'simlik qoldiqlari, barg xazonlar ostida qishlaydi. Mart oyining uchinchi o'n kunligi - aprel oyining birinchi yarmi davomida xasva g'allazorlar tornon uchib tarqala boshlaydi.

Pishmagan boshoq zararlanishi natijasida qisman yoki but unlay oq boshoq (ya'ni puch) bo'lib qoladi, don tarkibidagi oqsil kamayib ketadi. Boshoqdagi 10—15% donlarning zararli xasva bilan zararlanishi bunday donning un ishiab chiqarish uchun yaroqsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Xasva zararlagan paykallardan olingan uruglik donning unib chiqishi 50% gacha kamayadi. Zararli xasva yiliga 1 marta avlod beradi. (24- rasm).



23-rasm. Zararli xasvalar (qo'yilgan tuxumlari, imagolari va zarari).

**Kurash choraları.** Zararli xasvaga qarshi agrotexnik, seleksiya, biologik hamda kimyoviy kurash tizimi tavsiya etilgan.

1. Xasvaga qarshi kurashda agrotexnik tadbirlar alohida o‘rin tutadi. Bunga eng avvalo hosil yig‘ Ugandan keyin birinchi galda xasva bilan zararlangan dalalami shudgorlash kiradi. Zudlik bilan o‘tkazilgan bu tadbir natijasida xasva uchun qo‘srimcha em bo‘lishi mumkin bo‘lgan to‘kilgan don va qo‘srimcha oziqlanayotgan xasvalar erga ko‘milib nobud bo‘ladi. Erta bahorda kuzda ekilgan g‘alla ekinlarini mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirib boronalash, bahorgi donrilarni ekishdan oldin yuqori saviyada agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish - erga ishlov berish, o‘g‘itlash, yuqori sifatli umg‘ni erta muddatlarda ekish ham xasva zararini birmuncha kamaytiradi.

2. CHidamli navlar tanlash. Ertapishar navlar ekilganda xasva ularda to‘liq rivojlanib ulgurmaydi. Hozirgi davrda xasva zarariga bardosh beradigan hamda zararkunanda rivojlanishi uchun yoqimsiz navlar yaratilgan, bularni ekish qo‘srimcha mablag<sup>1</sup> sarfisiz ekinlarni himoya qilishni ta’minlaydi (I.D. SHapiro). SHunday navlar ham mavjudki, ular xasva so‘lagidagi ferment ta’siriga uchramaydi va iztirob chekmaydi (D.M. Paykin, L.E. Stepanenko).

3. Yig‘im-terimni kechiktirmay o‘tkazish. Bu tadbir shundan iboratld, agarda g‘alla yig‘imini boshoqlar sutmum davrida ayrim qilib, ya’ni oldin o‘rib, keyin yanchilsa. zararkunanda to‘liq oziqlanishga ulgurmaydi va fiziologik zaif bo‘lib, ko‘plab qiriladi, Bundan tashqari, ko‘pgina xasva lichinkalari mexanik ravishda ezilib o‘ladi.

4. Biologik usul. Xasvaga qarshi kurashda tuxumxo‘r telenomuslarning ahamiyati kattadir. SHuning uchun ularning rivojlanishi uchun kuzda dala atrofida to‘p-to‘p poxol qoldirib sharoit yaratilishi kerak. Don ekiladigan xo‘jaliklarda biolaboratoriylar taslikil etib, ularda boshqa kushandalar qatorida telenomusni ham maxsus usul bo‘yicha ko‘paytirib, dalaga olib chiqish mumkin.

5. Zararkunandalarning zinchligi yuqori bo‘ladigan dala-larni kimyoviy usulda himoya qilislmi rejaliashtirib qo‘yish lozim. Buning uchun quyidagi ishlarai o‘tkazish tavsiya etiladi. Zararli xasva va bir qator boshqa hasharotlaming asosiy qishlab chiqadigan joyi dala chetidagi uvatlar hisoblanadi. Hasharotlar aniqlangan uvatlarda havo harorati 10-12° dan oshgandan keyin (mart oyining I-II o‘n kunligi), g‘alla ekilgan paykalning 20-30 m chetiga va uvatlarga har ikkala tomonidan quyidagi preparatlar bilan OVX traktor purkagichini bir taraflama ishlatib yoki motorli qo‘l apparati bilan ishlov berish zarur: *BI-58*, (danadim), 40% em.k. - 1,5 1/ga, *fufanon*, 57% em.k. — 1,2-

2,0 1/ga, *siperfos* (nurell-D), 55% em.k.- 0,5 1/ga, *detsis*, 2,5% em.k. - 0,25 1/ga, *karate*, 5% em.k. - 0,15-0,2 1/ga, *sumi-alfa*, 5% em.k. — 0,2-0,25 1/ga, *sipermetrin*, 25% em.k. — 0,2 1/ga, *kinmiks*, 5% em.k. - 0,2 1/ga.

**G‘alla shiralari.** Tengqanotlilar (*Homoptera*) turkumining shiralar (*Aphididae*) oilasiga mansub. G‘allalarga zarar etkazadigan shiralar orasida ko‘chmanchi boMmagan, faqat g‘alla o‘simliklari bilan oziqlanib rivojlanadigan va ko‘chmanchi, ya’ni o‘zga o‘simliklar bilan bog‘liq bo‘lgan turlar mavjud. Birinchilariga oddiy g‘alla shirasi (*Schizaphis graminum* Rond.), arpa shirasi (*Brachycolus noxius* Mordv.) va katta g‘alla shirasi (*Sitobion avenue* F.) kiradi. Bulardan tashqari g‘alla ekinlarida cheremuxa - g‘alla shirasi (*Rhopalosiphum padi* L.) hamda suli yoki makkajo‘xori shirasi (*Rh. maidis* Fitch.) aniqlangan (Xaitov, 2007).

Oddiy g‘alla shirasi 0‘zbekistonning cho‘l mintaqalarida keng tarqalgan tur bo‘lib, ayniqsa kuzgi va bahorgi bug‘doyni, javdar, suli, tariq, sholi, makkajo‘xori, oq jo‘xori va ko‘p yillik g‘ailadosh o‘tlarmi shikastlaydi. Zararkunanda kuchli rivojlanganda koloniyalar hosil qiladi. Barg va novdalardan to‘qima shirasini so‘rishi natijasida o‘simliklar zaiflashadi, barglarning rangi sarg‘ayadi, burishadi va quriydi. YQshligidan kuchli zararlangan o‘simliklar boshoq chiqarmaydi.

Ko‘chib yuradigan shiralarga esa turli xil o‘simliklar bilan oziqlanish xosdir. YOzda g‘alla ekinlari bilan oziqlanib, kuzda esa oziqlanib tuxumini buta daraxti po‘stloqlarining ostiga qo‘yadigan oddiy buta shirasini (*Rhopalosiphum padi* I.) bunga misol qilish mumkin. Katta g‘alla shirasi, oddiy g‘alla shirasi va buta shirasi boshoqli o‘simliklar bargi, poyasi va boshog‘ida ochiq holda yashaydi (24-rasm).



**24 -rasm. G'all'a shirasi (1): a-qanotli etuk zot; b-qanotsiz etuk zot; c-v-bargdag'i tuxnmlari; d-lichinkasi; e-bargdag'i shiralar; f-zararlangan o'simlik; g - boshoqdagi shiralar.**

Af'a shirasi esa, qisman oddiy g'alla shirasi ham, boshqalardan farq qilib, barglarda ochiq hoida yashamaydi, balki boshqoq tubidagi barglaming naychasi ichiga kirib olib hayot kechiradi. SHiraiar ayniqsa bahor va kuzda ko'plab rivojlanadi, bunga iqlim sharoitlari sabab bo'ladi. YOzning issiq kunlarida havo namligi pasayishi bilan hamda qisqa umrli (efemer) g'allasimon ojsimliklar qurib qolishi bilan shiralar rivojlanishi depressiyaga uchraydi. Mavsum davomida shiralar 10-16 bo'g'in beradi. SHiraiar o'simlikning yashil va yumshoq qismida sharbatini so'rib oziqlanadi. Zararlangan o'simlidar 10-15% hosildorlikni yo'qotadi. SHiralarga qarshi kimyoviy kurash o'tkazish uchun IZMM sifatida quyidagi raqamlar qabul qilingan. Agarda g'alla boshoqlagan davrda dalada 50% o'simlik zararlangan bo'lib, bar birida 10-20 tadan ortiq shira mavjud bois, kimyoviy kurash o'tkaziladi.

**Kurash choralari.** 1. G'allaga zarar etkazuvchi shiralar tuxum shaklida qishiagani sababli, kuzgi shudgor asosiy kurash chorasi hisoblanadi.

2. O'simliklarni organomineral o'g'itlar bilan ta'minlab, yuqori agrotexnika tadbirlari yordamida bardoshliligini oshirish mumkin.


3. Kimyoviy vositalar sifatida zararli xasvaga qarshi tavsiya etilgan insektitsidlarni qo'llash mumkin.

**Pyavitsa (shilimshiq qurt) - *Lema melonopus* L.** (Qo‘ng‘izlar - *Coleoptera* turkumiga, barg kemiruvchilar - *Chrysomelidae* oilasiga mansub).

**Tashqi ko‘rinishi.** Qo‘ng‘izining kattaligi 4-5 mm, umumiyligi rangi - och yashil-ko‘k, old elkasi va oyoqlari sarg‘ish-qizil, boldir uchi, panja va mo‘ylovlari qora, ustqanotida parallel joylashgan mayda nuqtalari mayjud (25-rasm).

Tuxumi silindr shaklga ega bo‘lib, rangi sarg‘ish, kattaligi 1 mm, 3-7 tadan 1‘alla bargiga yopishtirilgan boiadi. Lichinkasining kattaligi 5-6 mm, o‘rtasi semiz va bukri, tunsi och sariq yoki oqish, boshi qora, sirt tomondan o‘zining axlatidan iborat qo‘ng‘ir tusli shilimshiq bilan qoplangan, bu esa qurtni dushmanlaridan himoya qiladi.

**SHiiimshiq qurt** kemiruvchi zaraikunanda boMib, Respublikamizning barcha g‘allazorlarida uchraydi. Uning qo‘ng‘izi tuproqda qishlaydi. Bahorda chiqib qo‘shimcha oziqlangandan so‘ng urg‘ochisi zanjirsimon shaklda 3-7 tadan qilib 200 tagacha tuxum qo‘yadi.



**25-rasm. SHiiimshiq qurt (imagosi, lichinkasi, g‘umbagiva zarari).**

Tuxumdan 7-14 kunda lichinka chiqadi. Lichinkasi ikki hafta davomida barg bilan oziqlanib, shilimshiq qoplamasini tashlab tuproqqa tushadi va 2-3 sm chuqurlikda g‘umbakka aylanadi. Ikki haftadan so‘ng pilladan qo‘ng‘iz chiqadi va bahorgacha tuproqda qoladi. SHiiimshiq qurt yiliga 1 marta avlod beradi.

**Kurash choralarL** 1. Zararkunanda dala sharoitida qishlab qolganligi sababli yuqori agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish uning sonini jiddiy ravishda kamaytiradi. 2. Bahorgi ekinlarni mumkin qadar erta ekish, pyavitsa muammo bo‘lgan tumanlarda unga nisbatan yoqimsiz bo‘lgan

52

bug‘doyning yumshoq donli navlarini ekish tavsiya etiladi. 3. Qo‘ng‘iz va qurtlarga qarshi ruxsat etilgan insektitsidlar quyidagi shartlarga amal qilib

qo'llaniladi: o'simlikning nay chiqarayotgan davrida kuzgi bug'doyning har m<sup>2</sup> ida 40-50 va undan ko'p qo'ng'iz aniplansa; bahorgi ekinlarda 10- 15 ta va undan ko'p qo'ng'iz boMsa; boshoq chiqara boshlash davrida esa


**10-** 15% barg sathi zararlangan bo'lsa. Ishlovni qisqa muddatlarda amalgaloshirish muvaffaqiyat garovidir. Oxirisida dala atrofidagi tut daraxtlarini zaharlab qo'yishning oldi olinishi lozim.

To'rt nuqtali qo'ng'iz oila - donxo'r  
qo'ng'izlar - *Bruchidae* turkum -  
qattiqqanolliar - *Coleoptera* sinfi -  
hasharotlar- *Insecta*

Ruscha no m 1 a nishi: *Cheturexpyal n is Lay a zernovka* Latincha nomlanishi: *Cedlosobruchiis maculatus F.*

0'zbekcha nomlanishi : *To'rt nuqtali qo'ng'iz* Bu qo'ng'iz loviya, mosh, no'xat, burchoq, zig'ir, yasmiq urug'lari ichidagi moddani kemirib eyishi bilan zarar etkazadi. SHikastlangan donlarning, unish darajasi 75% gacha pasayadi va to'rt nuqtali qo'ng'izning chiqindilari bilan ifloslangan donlar ovqat uchun yaramaydi.

Afg'oniston, Hindiston, Indoneziya, Uzoq SHarq, Janubiy, 0'rtta va SHarqiy Evropada, 0'rtta va janubiy Afrikada, Mawikiya oroiida, 0'zbekistonda omborlarda 1978 yildan beri tarqalib kelyapti. Asosan hozirgi kunda Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida va Toshkent shahrida tarqalgan.



**26-rasm. To'rt nuqtali qo'ng'iz:** 1- ko'ng'izi va uning zarari. 2- don ichidagi g'umbagi

To'rt nuqtali donxo'r qo'ng'iz hasharotlar sinfi, qo'ng'izlar turkumi va donxo'rlar oilasiga mansub bo'lib, loviya, tikon daraxti, no'xat, kabutar no'xati, yasmiq, mosh va boshqa dukkakli o'simliklarga katta zarar etkazadi,

Qo'ng'izni tanasi kalta, oval shaklda, rangi qizg'ish qo'ng'ir, qanoti ustlari bo'y lab g'uj joylashgan kalta tuklardan iborat, qora va och rangli dog'chalar

o‘tadi. Oldingi qanotida 4 ta oq tusii belgilari bor. Orqasining old qismining asosiy uchiga nisbatan kengroq. Keyingi boldirlarining ichki tomonida tishchalari bor. Qo‘ng‘izning, tana uzunligi 2,5-3,5 mm keladi.

Erkak qo‘ng‘izlarning mo‘yloviali taroqsimon shaklda, 8-10 bo‘g‘imli, urg‘ochilarining mo‘yloviali esa tasbexsimon shaklda. Ana shu belgilariga qarab erkak va urg‘ochilarini bilib olish oson. Qanotlari to‘rtburchaksimon och-jigarrang, oqish tukchalar bilan qoplangan.

**Tuxumi** yaltiroq, oqish rangda, cho‘zinchoq oval shaklida 0,7-0,46 **мм** uzunlikda.

Lichinkasi och sarg‘ish rangda, uzunchoq bo‘lib 4 **мм** uzunlikda, kichkina boshli, ko‘krak qismiga tomon egilib turadi, 3 jut oyoqlari mavjud.

G‘umbagi - och sariq rangda, uzunligi 2,5-3,5 mm kattalikda bo‘ladi.

Voyaga etgan qo‘ng‘iz holatida omborlardagi, shuningdek dalalarda yanchish vaqtida erga to‘kilgan no‘xatlar ichida qishlaydi. Ko‘klamda qo‘ng‘izlar no‘xat urug‘larini kemirib teshib, tashqariga chiqadi. Urg‘ochi qo‘ng‘iz tuxumlarini no‘xatning yosh qo‘zoqlariga, o‘z tanasidan chiqargan va tez qurib qolgan suyuq tomchi ustiga qo‘yadi. Tuxum qo‘yish davri ikki hafta davom etadi. Bitta urg‘ochi qo‘ng‘iz o‘rtacha 20 kun davomida 100 tagacha tuxum qo‘yadi. Qo‘ng‘iz o‘rtacha

12, ba’zan 36 kungacha yashaydi, tuxumdan voyaga etkungcha davri uchun harorat 30°S bo‘lsa 18 kun etarli. Agar 18°S bo‘lsa 40-48 kun davom etadi. Qishda bu davr 3-4 oy davom etishi mumkin.

Tuxumlari o‘rta. hisobda 8, lichinkalari 17, g‘umbaklari 7 kunda rivojlanib bo‘ladi.

Turli sharoitda bu zarakunandaning to‘la rivojlanishi 18-60 kimgacha davorn etadi. Loviyaning bitta doni ichida bir necha lichinka etilishi mumkin.

Bu zararkunandalar omborlarda yiiiiga bir necha bo‘g‘in, noqulay iqlim sharoitida bitta bo‘g‘in beradi. Harorat etarli darajada yuqori bo‘lganda qishki uyquga kirmasdan rivojlnana oladi.

To‘rt nuqtali donxo‘r asosan zararlangan don orqali atrofga tarqaiadi.

**Hasharotga qarshi kurash tadbidari quyidagilardan iborat:**

1. Zararkunanda bilan zararlangan dukkakli mahsulotlami saqlashda uning ichiga osh tuzi solib qo‘yish maqsadga muvofiq.

2. Hasharot zararlagan dukkakli ekinlami ekish qat’iyan man etiladi. CHunki bu kelgusi yil hosili uchun o‘ta xavfli hisoblanadi.

- 3.Ommaviy targHbot va tashviqot ishlarini kuchaytirish.
4. Oziq-ovqatga ishlatalidigan loviya va dukkaklar termik usulda yuqum sizlantiriladi.
  5. Loviya va boshqa dukkakli ekinlar, donlarining to‘k:ila boshalashiga yo‘l qo‘ymasdan, o‘z vaqtida o‘rib olish zarur. Don yanchilgan joylarda qolgan xas-cho‘plarni yo‘qotish iozim.

**Mavzu asosida g‘allaning so‘ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarini  
o‘rganib quyidagi B/BX/B JADVALI jadvalini  
to‘Miring**

Mə	Mavzu savollari	Bilaman+ -	Bilishni istayman+ -	Bilib oldim+ -
1.	G‘alla zararkunandaları turları			
2.	Zararlı xasvaning zararı			
3.	G‘alla ixipsining zararı			
4.	SHiliimshiq qurtning zararı			

**Nazorat savollari:**

1. G‘allaning zararli organizmlariga ta’rif bering?
2. Zararli xasvaning morfologiyasini aytib bering?
- 3.SHiliimshiq qurt qanday zarar keltiradi?

**11-** lab  
**oratoriya mashg‘uloti Em -xashak ekinlarining zararli organizmlar  
va qarshi kurash choraiari Kerakli jihozlar:** Binokulyar, tennostat,  
avtoklav,

pH

millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, hasharotlar kolleksiyasi

**Ishning bajarish tartibUTur - Beda barg filchasl (fitonomus) -  
Phytonomus variabilis. H. B.**

*Oila - uzunburunlilar - Curculionidae.*

*Turkum - qattiq qanotlilar - Coleoptera.*


Qo‘ng‘izining uzunligi xartumchasini hisobga olganda 5-7 mm uzunlikda: bosh qismi oldingi naycha shaklida cho‘zilib turadi. YOsh qo‘ng‘izlar sarg‘ish-kulrangli, keksalari esa qoramtilr kulrangli bo‘ladi. Qanot ustligining o‘rtasida, ularning tubiga yaqin qismida, to‘q jigar rangli yoki qora rangli serbar dog‘lari bor: uchi orqa tomonga yo‘nalgan bu dog‘lar noto‘g‘ri pona shaklida bo‘lib, qanotustliklardagi dog‘larning taxminan uchdan ikki qismini egallab turadi (27-rasm).

Tuxumi ellipssimon, uzunligi 0,5-0,65 mm keladi. Dastavval tuxumlari och-sariq rangli bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan sarg‘aya boradi. Lichinkasi oyoqsiz bo‘lib, uzunligi 10 mm ga boradi. Qorin qismining har bir bo‘g‘imida joylashgan har bir bo‘rtmachasi yordamida harakatlanadi. Lichinkasi oq-sarg‘ish ko‘kimtir rangda bo‘ladi.

G‘umbagi erkin g‘umbak tipiga kiradi. G‘umbagining rangi avval sariq bo‘lib, keyinchalik yashil tus oladi. G‘umbaginmg uzunligi 0,5-8,0 mm keladi.

Fitonomus imago holida ko‘pincha bedapoyada tuproqning yuza qismida va ayrim holiarda dala atrofidagi begona o‘tlarda qishlaydi. Qo‘ng‘izlari o‘rtacha kunlik harorat 12 °S ga etganda qishlovdan chiqadi.

Fitonomus bir yilda bir marta avlod beradi. Fitonomus lichinkalari va imagosi faqat bedani birinchi o‘rimiga katta zarar etazaai. Uiar bedaning faqat bargi bilan oziqlanadi.



27-rasm. Fitonomus: 1-qo‘ng‘izi, 2-lichinkasi, 3-g‘umbagi, 4-pilla  
ichida joylashgan g‘umbagi, 5-sog‘lam (a) va shikastlangan (b)  
bedadan oiangan hosil  
(YAxontov, 1962).

**Kurash choralar.** Fitonomusga qarshi kurashda birqator agrotexnik tadbir-choralar: (kuskutadan (zar pechak) tozalangan urug‘ ekish,


oziqlantirish, sug‘orish; yil boshida bedazorlami baranalash; bedani bir joyda 3 yildan ortiq saqlamaslik va boshqaiar) katta ahamiyatga egadir.

Fitonomus bedani mart-aprel oylarida zararlab shikastlagani tufayli va bu muddatlarda dala atrofida joylashgan tut daraxtlari barg yozaboshlagani uchun, bu zararkunandaga qarshi kimyoviy kurash o‘tkazish ma’lum qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Gap shundaki, mahsus tadqiqotlarimizda aniqlanishicha, xatto tutning barglari hali yozilmagan- kiutaklari bo‘rtgan davrda atrofi tut bilan o‘ralgan bedazorda fitonomus ga qarshi birorta sintetik piretroid yoki FOB bilan ishlov o‘tkazilsa, donning tutga tekkan yuqlari ham, keyinchalik kesib olib pilla qurtiga (*Bombyx mori* L.) berilsa, ularning qirilib ketishiga sababchi bo‘ladi. SHuning uchun, bedani fitonomusdan himoya qilishda kimyoviy dorilarni bedazor atrofidagi tutlarni kesib olishga 45-50 kun borligidagina ishlatalidi. Mayjud mezonlarga ko‘ra, kimyoviy kurash o‘tkazish uchun IZMM sifatida har bir beda novdasiga o‘rtacha 1 tadan ko‘p fitonomus lichinkasi to‘g‘ri kelsa amalga oshiriladi. Bu maqsadda quyidagi dorilarni ishiatsa bo‘ladi: **detsis** - 0,4 1/ga, **sumi-alfa** - 0,3 1/ga, **sipermetrin** - 0,2 1/ga, **karate** - 0,3 1/ga, **BI-58** - 0,5-1,0 1/ga, **karbafos** - 0,2-0,6 1/ga va b. (Ro‘yxat..., 2016). Ayrim paytlarda, himoya qilish kurashlari o‘tkazish imkoniyatlari mavjud bo‘lмаганда, beda o‘rishi muddatidan ilgari o‘tkazish mumkin. Ammo, bunda beda hosildorligiga ma’lum daraja putur etadi.

#### **Tur - Beda qandalasi - Adelphocoris tineolatus Oila — Miridae Turkum - yarim qaftiq qanotlilar - Hemiptera**

Erkagining uzunligi 6,5-9,5 mm gacha, urg‘ochisining uzunligi esa 6,5- 8 mm gacha bo‘ladi. Tanasi cho‘zinchoq shaklda, rangi qo‘ng‘ir yoki sarg‘ish yashil, erkaklariniki urg‘ochilarinikidan qoraroq bo‘ladi. Beda qandalasi orqa tomonini boshiga yaqin qismida (elkasida) ikkita qora nuqtasi bor. Tuxumi 1,5 mm bo‘lib, cho‘zinchoq shaklda tuxumining o‘rta qismi bukilib, pastki uchi torayib va dumaloqlanib turadi, yuqorigi uchi qopqoqcha bilan berkitilgan, tuxumlari sarg‘ish oq bo‘lib,

keyinchalik qizaradi. Lichmkalarining rangi yashil, qorni qizg'ish tusli bo'lib, uzunligi 3,5-5 mm gacha. boradi.



28-rasm. Beda qandalasining etuk zoti

Beda qandalasi oziqlangan o'simligining poyasi ichida tuxumlik bosqichida qishlaydi. Imago va lichinkalari barg bandi, bargyaprog'i, poya va g'unchalami so'rib oziqlanadi. 0'zbekistonda bu zararkunanda 3-4 marta avlod berib rivojlanadi.

*Tur - Bedaning maysa (tuganak) flchasi- Sitona cylindricollis Oila - uzunburunlar- Curcylionidae Turkum - qattiq qanotlilar - Coleopiera*  $\times$   
Maysa flchasingin uzxmligi 4,5-5 mm keladi, qanot ustligi to'q kul rangda bo'lib aniq ko'rinxaydigan oq, kulrang va qo'ng'ir dog'lar bilan qoplangan. Xartumchasi fitonomusnikidan katta va yo'g'otiroq bo'ladi. Tuxumi oval shaklda, avval och sariq rangli, so'ngra esa qorayadi. Uzunligi 0,4 mm, eni 0,3 mm keladi.

Lichinkalarining tanasi oqish, boshi esa qo'ng'ir rangli boiadi. Lichinkalarining oyoqlari yo'q bo'lib, siyrak tukchalar bilan qoplangan. Uzunligi 5-6 mm ga etadi. G'umbagi erkin tipda bo'Mib, xira oq yoki sarg'ish rangli bo'ladi.

Maysa flchasi imagolik davrida er yoriqlarida, kesaklar ostida va o'simlik qoldiqlarida qishlaydi. Ertabahorda qo'ng'izlar qishlovdan beda ko'karmasdan ilgariroq chiqadi va o'sa boshlagan beda bilan oziqlanadi. Ular bedani barg va ustki qismi bilan oziqlanadi. Qo'ng'izlari beda barglarini chetini lcemirib o'yilalar hosil qiladi. Maysa flchasi bir yilda ikki marta avlod beradi.

**Kurash choraları.** Beda ildiz va tuganak filchalariga qarshi kurash yuqori agrotexnika tadbirlarini o'tkazib o'simliklami sojorn va baquvvat o'stirishdan boshlanadi. Zararkunandalar ayniqsa ko'proq uchravrdigan erlarda urug' ekishda uni Bl-58 insektitsidini 4%-lik qiiib superfosfat donachalariga qoplab har gektarga 50 kgdan sarflash yaxshi natija beradi. Umurnan olganda, er yuzida o'nnalab yur-gan qo'ng'izlariga qarshi bironta piretroid dordidan (detsis, sumi-alfa, sipermetrin va b.) ishlatsa ham bo'ladi.

*Tur- Beda urug<sup>xo</sup><sup>i</sup>- Bruchophagus rodii Guss*

*Oila- Curculionidae*


*Turkum. qattiq qanotlilar- Coleoptera*

IJrg'ochi beda umg<sup>xo</sup>'rininguzunligi 1,3-2,1 mm keladi. Tanasining rangi qora, Ko'lkragini oxirgi qismida o'yiqchasi bor, orqasibukri. Qorni kalta tuxumsimon silliq va yaltiroq. Mo'ylovleri sakkiz bo'g'imli. Qanolaritining, ko'pgina tukchalar bilan qoplangan (29-rasm).

Erkak beda urug<sup>xo</sup>'rinng uzunligi 1,2-2 mm keladi, rangi qora. Qomi urg'ochisini kiga nisbatan dumaloq va uzunroq bo'ladi. Tuxumi silliq, tiniq rangli, ellips ko'rinishga ega, dumcha shaklidagi o'simtasi bo'lib, u tuxumdan 2-3 marta uzunroq bo'ladi. Lichinkasining uzunligi 1,5- 2 mm ga etadi. Dastavval u ko'k rangli bolib rivojlanishini oxiriga borib oqish rangga kiradi. G'umbagi oq rangda bo'lib, keyinchalik qorayadi.

Beda urug<sup>xo</sup>'ri ombordagi beda urug'ida, beda dukkagida, yovvoyi holda o'suvchi dukkakli o'simliklarda lichinka bosqichida qishlaydi. Mart-aprel oylarida lichinkalar g'umbakka aylanadi va aprelning ikkinchi yarmida g'umbakdan imagosi ucha boshlaydi.

Beda urug<sup>xo</sup>'ri tashqariga chiqishdan oldin urug<sup>1</sup> yoki dukkakni dumaloq yoki noto'g'ri shaklda teshadi. O'zbekiston sliaroitida 3-4 marta avlod beradi. Voyaga etgan beda urug<sup>xo</sup>'ri nektar bilan oziqlanadi.



29-rasm. Beda urug‘xo‘ri: 1-urg‘ochi zot, 2-\$ mo‘ylovi, 3-S mo‘ylovi, 4-tuxumi, 5 - lichinkaning ustki jag‘i, 6-lichinka, 7-g‘umbagi, 8-beda urug‘ining shikastlanishi 2 (Nikolskayadan, 1952 olindi).

**Kurash choraları.** Beda urug‘xo‘riga qarshi kurash yanchilgan urug‘, yoki ekiladigan urug‘ni tozalashdan boshlanadi. Bunda urug‘ yig‘indisini 15% lik osh tuzi yoki amrniak selitrasи eritmasiga 2-3 minutga solib qo‘yiladi: zararlangan urug‘lar suv yuzida qoladi, zararlanmagani esa suv ostiga cho‘kadi. Sog‘lom urug‘ darhol toza suvda yuviiib selgitib olinadi, zararlangani esa - ko‘mib tashlanadi. Bedadan bo‘shagan erlar kuzda chuqur qilib xaydab qo‘yiladi.

Beda urug‘i shakllanayotgan davrda entomoiogik sachokni 50 marotaba xarakatlantirilganda 15-20 tadan ortiq umg‘xo‘r etuk zoti ilinsa - bu kimyoviy ishlov o‘tkazish lozimiigidan daloat beradi (SHamuratova, 2006). Samara olish uchun quyidagi insektitsidlami ishlatsa bo‘ladi: ***karate, talstar, sumi-alfa, detsis*** (0,3 1/ga); ***siperfos, deltafos*** (0,4 1/ga).

Topshiriq. Piretroidlar gumxiga kiruvchi insektitsidlaming xususiyaflarini bilish uchun yuqoridagi mavzii bilan tanishib chiqib “Insert usuli”dan foydalaniб jadvalni to‘ldiring.

#### Insert jadvali

V	*	-	?

**V - men bilaman;**

**\* - yangi axborot;**

**- - men bilganimga zid;**

? - meni o'y!antirib qo'ydi.

**Nazorat savollari:**

- LBedaning zararli organizmlariga ta'rif bering?  
2, Beda barg filchasingin morfologiyasini aytib bering?  
3. Beda urug'xo'ri qanday zarar keltiradi?

**12- laboratoriya mashg'uloti Poliz  
ekinSarini zararli organizmlar va ularga qarshi kurasi  
choralari**

**Kerakti jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH-millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirogi, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, lupa, hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O'rghanish ob 'ektlari:** har xil hasharotlarning kolleksiyalaridan foydalanamiz.


**Ishning bajarish tartibi:** Poliz qo'ng'izi- Bu o'simlikxo'r koxsinellid qo'ng'izining o'ziga xos belgilari borligi uchun darxol aniqlab olish mumkin. Qo'ng'izi yarim doirasimon shaklga ega, tanasining past tomoni yassi, usti esa qavariq, kattaligi 7-8 mm, rangi qizil-qo'ng'ir, ust qanotlarining hai- birida 6 tadan qora dog'i bor. Uni 12 dog'li poliz korovkasi deb atashadi. Tuxumi yorqin sariq tusda. U cho'ziq oval shaklda bo'lib, kattaligi 1,75 mm keladi. Lichinkasi sarg'ish tusda, uch juft ko'krak

oyoqlari bor, ust tomonida besh qator joylashgan shoxlagan qora tikan- chalari bor, uzunligi 9 mm keladi (30-rasm). G'umbagi koxsinellidlarga xos - orqa uchi bilan bargga yopishib turadi, tanasi qisqarib kengaygan, usti tukchalar bilan qoplangan, rangi sariq.

**Hayot kechirishL** Qo'ng'izi o'zi yashagan erda turli o'simlik qoldiqlarining ostida qishlab chiqadi. Uni qamish poyasida ham topishgan. Bahorda qo'ng'izlarning uyg'onishi ancha cho'ziladi va poliz ekinlarining ko'karish davriga to'g'ri keladi. Qo'ng'izlari ekinlarga uchib o'tib qo'shimcha oziqlanadi, o'simlik barglarining ust tomoniga 20-50 tadan g'uj qilib tuxum qo'yadi.

Poliz qo'ng'izi barcha poliz ekinlarini lichinka va qo'ng'izlari kemirib zararlaydi. Qo'ng'izlari tuproqni yuzaga qatlamida, o'simlik qoldiqlari ostida qishlaydilar. Tuxumlarini barglami ostki qismiga to'p-to'p qilib (20-40 ta dan) qo'yadilar. Qo'ng'izlami 1300 tagacha tuxum qo'yadilar. Poliz qo'ng'izi bir yilda

2-3 marta avlod berib rivojlanadi.




30-rasm. Poliz qo'ng'izi.

**Kurash choralar:**

**Agrotexnik tadbirlar:** barcha poliz ekinlari ekilgan maydonlarida o'simiik qoldiqlarini yig'ib olib yo'qotib tashlanadi; erni chuqur shudgor qilish lozim; poliz ekilgan maydonni 100 m radiusida begona o'tlar yo'qotiladi.

**Kimyoiy** III'ni/.fenkil, 20% em.k.-0,5 l/ga(qovun); Siraks,20% em.k.-0,081/ga, Sipbi,25% em.k. - 0,24-0,32 l/ga (qovun,tarvuz - ildizqirqar tunlamlar) - 0,06 l/ga poliz qo'ng'izi va boshqa ruxsat etilgan preparatlar bilan ishllov beriladi.

**Qovun paslishasi** - *Carpomya pardalina* Bigot. Ikki qanotlilar (*.Diptera*) turkumi, cibIpor qanotlilar (*Tephritidae* [*Tryptidae*]) oilasiga mansub.Etuk zotining rangi och sariq, uzuligi 5,5-6,5 mm, ko'krak kismi oltinrang mayda tukchalar bilan qoplangan, ko'kragini ustki qismida 2 ta ochroq tasmasimon dog'lari mavjud. Boshqa pashshaldardan ko'krak va qorin qismlarida bir nechta mayda dog'chalari mavjudligi bilan ajralib turadi. Qanotlari och sariq, ulaming har birida 3 ta to'qroq sariq tasmasimon dog'lari bo'lib, ulardan 2 ta ichki qismidagilari to'g'ri, tashqi qismidagisi «V» harfi shaklida (31-rasm).



**3I-rasm. Qovun paslishasi: 1-zararlangan qovunning tashqi ko‘rinishi, 2- zararlangan qovunning ichki ko‘rinishi, etuk zoti**

*Twcumi* oq, yaltiroq, uzunchoq shaklli, uzimligi 1 mm gacha. *Lichinkasi* oq, oyoqsiz, old qismiga qarab ingichkalashgan, etilganlarining uzunligi 10 mm gacha, tanasining oxirgi segmentida 2 ta kichik o'smalari mavjud. *G'umhagi* sarg'ish-qo'ng'ir yoki qizg'ish-qo'ng'ir, uzunligi 7-8 mm, usti qattiq bo'lган soxta pilla (pupariy) ichida rivojlanadi. Etuk pashshaning tanasi uzunchoq silindr shaklli, uzunligi 8-10 mm, oq yoki sarg'ish tusli, terisi qalinlashmagan, boshi oddiy, peshona qismlari biroz rivojlangan, mo'ylovi 2 segmentli, dorsal tuklari T-1 - A-6 segmentlarida, A-8 dum segmentida, 10 ta mikroskopik sezgi tukchalari mavjud.

***Hayot kechirishi.*** Pupariy ichidagi g'umbagi tuproqda 10-20 sm chuqurlikda, qishlaydi. Qishlagan g'umbakdan pashshalar ertapishar qovun gullash va meva tuga boshlash davrida (mayning ikkinchi yannida) uchib chiqadi. Pashsha shira bilan oziqlanganidan so'ng otalanadi va qovun yoki boshqa poliz ekiniali yosh mevalarining qobig'ini tuxum qo'ygichi bilan teshib, uning tagiga bittadan, ammo ko'pincha bitta mevaga 20 ta va undan ham ko'proq tuxum qo'yadi. Tuxum

qo‘yish odatda mevalar diametri 3-5 sm bo‘iganda boshlanadi. Bitta urg‘ochi pashsha bir mavsumda 98-130 ta tuxum qo‘yadi. Tuxum 2-8 kun davomida embrional rivojlanishdan o‘tgach, ulardan lichinkalar chiqib, darhol meva ichiga o‘tadi, meva eti bilan oziqia-nib, uruqqacha etib boradi va urug‘ni ham eydi. Ular 10-18 kun rivojlangandan so‘ng, meva po‘stini teshib tashqariga chiqadi va tuproqda 5-15 sm chuqurlikka ketib, pupariy ichida g‘umbaklanadi. 10-18 kundan so‘ng g‘umbakdan 2-bo‘g‘in pashshasi chiqadi, urg‘ochi zotlari otalanadi va yana tuxum qo‘yadi. Bir bo‘g‘inining hayot davri 30 kuncha bo‘lib, bir mavsumda pashsha Afg'onistonda 3-4, Qoraqalpog‘istonda 2-3 bo‘g‘in beradi. Qishlashga ketish paytida lichinkalar tuproqda 10-20 sm chuqurlikda g‘umbak!anadi. Lichinkalar qovun ichida harakat-langanda qovun etida zang tusli dog‘lar paydo bo‘ladi. Lichinkalar tashqariga chiqishida po‘choqda paydo qilgan teshiklardan kirgan mikroorganizmlar ta’sirida qovun 5-7 kun ichida butunlay chiriydi va o‘ta badbo‘y hid chiqaradi.

**Karantin tadbirlari.** Qovun pashshasi G‘zbekistonning boshqa viloyatlariga tarqalmasligi uchun ichki karantin chora-tadbirlarini ko‘llash lozim, jumladan Qoraqalpog‘istondan (va Xorazm viloyatidan) zararlangan poliz ekinlari mevalarini va ildiz tizimi puxta tozalanmagan daraxt nihollari va boshqa ekinlami olib o‘tish man etiladi. Insektitsid sifatida piretroidlar hamda karbofos (fufanon), sumition, aktellik yuqori samara beradi.

### **13- laboratoriya mashg‘uloti Issixxona sabzavot ekinlari zararli organizmlar va ularga karshi kurash choralar.**

**Issixxona oqqanoti (*Trialeurodes vaporariorum*)** Ma’lumotlarga qaraganda issixxona oqqanoti g‘o‘za pomidor, bodring, baqlajon, fasol, kungaboqar, tamaki va boshqa ko‘pgina ekinlarga zarar etkazadi.

Voyaga etgan hashorot gavdasi sarg‘ish rangli 1-1,5 mm uzunlikda bo‘lib, ikki juft unsimon oqqanot bo‘lib, tuxumi ovolsimon 0,2 mm uzunlikda bo‘lib, boshlang‘ich bosqichda ular och sariq bo‘Madi.


Issixxona oqqanotining tuxumi substratga kichik poyachasi bilan yopishadi. Nimfasi 0,8 mm uzunlikda yapaloq ovolsimon maxsus tukchalar bilan. qoplangan. Oqqanot chala rivojlanuvchi hashorat bo‘lib, tuxum li 1-4 yoshli lichinka, nimfa va voyaga etgan hashorot fazalarini o‘taydi. Lichinkasi tuxumdan chiqadi va yapaloq kuchsiz yashil xarakatchan boiib 3 juft oyoqli hamda qizil ko‘zli bo‘ladi. Tuxumdan yangi chiqqan lichinka birinchi yoshda 0,3 mm boiib dastlabki 15 scat

davomida o‘zi yopishadigan qulay joy qidirib faol harakat qiladi, Keyin oziqlanadi va harakatsiz bo‘lib, mum qavat bilan qoplatiadi, bargini so‘ra boshlagach harakatsiz hayot kechiradi. Birinchi yoshda lichinkalar yuqori harorat va havoning namligini past bo‘lishiga sezuvchan bo‘lib, bu fazaning davomiyligi 4-6 kun bo‘ladi. Lichinka 2 chi yoshda yaltiroqligi sababli bargda kuzatish qiyin bo‘ladi. Uning uzunligi 0,4 mm bo‘lib, 1-3 kun rivojlanadi. Lichinka 3 yoshda 0,5 mm gacha o‘sadi. Ancha xiralashadi, 2-6 kun davomida rivojlanib elkasida 7 juft o‘simta paydo bo‘ladi va shu bilan oldingi yoshdagilardan farq qiladi. Lichinka to‘rtinchi yoshdan niifaga aylanadi, uzunligi 0,8-0,75 mm gacha etadi. U 10-16 kun rivojlanadi. Uiaming urg‘ochi!ari .20-28 kun yashaydi va 150- 300 tagacha tuxum qo‘yadi. Tuxumlarni yosh bargning pastki qismiga 10-20 donadan to‘p-to‘p qo‘yadilar. Voyaga etgan hashorot va ularning tuxumi qisqa muddatli 13° S gacha harorat pasayishiga ham chidamli bo‘ladi. Havo harorati +30°S bo‘lganda urg‘ochi!ari 9-11 kun yashasa, erkaklari ulardan 2-3 marta kam yashaydi. Koloniyada odatda

oqqanotning hamma rivojlanishi fazalaridagi vakillari mayjud boiadi. (40-rasm)

O‘simlikni asosan lichinkalari hamma yoshda zararlaydi. Lichinkalarda ajralib chiqqan shira “yopishqoq modda” barglar va mevalari. ifloslanishiga olib keladi. Bu shirada saprofit zamburugiar rivojlanib, barg-mevalarning ustki qora qurnm bilan qoplanib, fotosintez pasayadi. Hatto o‘simlik nobud bo‘lishi mumkin.

Issiqxona oqqanoti tropik tur bo‘lib, asosan himoyalangan maydonda erta bahordan kech kuzgacha rivojlanadi. O‘zbekiston sharoitida ochiq maydonda ham tarqalib ituzumdoshlар va qovoqdoshlar oilasi vakillarini kuchli zararlaydi. Berkitilgan va pana joylarda qishlovdan chiqqan. Gruziya va O‘zbekiston janubidagi o‘simliklar qishda ham vegetatsiyasini davom ettiradigan sharoitda, ochiq maydonda ham bemalol qishdan chiqib oladi. Yil davomida 9-10 ta avlod beradi.




32-rasm. Issiqxona oqqanoti: a-etuk zot, b-tuxumlari, v-lichinkasi, g-pupariysi, ti-zararlanguaii g‘o‘za barglari.


**Kurash choraları.** 1. YUqori agrotexnika asosida sog‘lom va bardoshli o‘simliklami o’stirish. 2. Oqqanot ochiq sharoitda oz bo‘lishi uchun uni issiqxonalarda va turli tashqilot xonalaiidagi o‘simliklarda qish oylari davomida qirib turish kerak. Bu eng asosiy talablardan biridir. 3. Oqqanot- ga qarshi kurashning nokimyoviy usuli ham mavjud. Buning uchun sentyabr-oktyabr oylarida ochiq sharoitdan issiqxonalarga kirishga harakat qilgan oqqanot etuk zotlarini sariq tusli elim surtilgan ekranlarga tutib qirish hamda maxsus separatorlarda zararkunandadan ajratib olingan

enkarziya kushandasini issiqxonalarga tarqatish lozim. Bu yo'l bilan issiqxonalarda oqqanot ko'payishining oldi olinadi, oqibatda kelgusi yili ochiq sharoitga kamroq zararkunanda uchib chiqadi separator sifatida mayda ko'zli tegimon elagini ishlatish mumkin. YA'ni, elak ichiga joylashtirilgan daladan yig'ib kelingan barglardagi oqqanot ichidan uchib chiqqan enkarziyaning etuk zoti mayda bo'lganligi sababli, elakdan tashqariga. uchib chiqsa oladi, oqqanot esa qolib ketadi. 4. Pomidorda (ochiq sharoitda) oqqanotlarga qarshi kurashish uchun quyidagi insektitsidlar tavsiya qilingan: ***konfldor*** - 0,3-0,4 1/ga, ***kalipso*** - 0,15 1/ga, ***detsis***-0,25-0,5 1/ga, ***karbofos***- 1,2-2,0 1/ga, ***fufanon*** - 1,5-2,0 1/ga.

0'zbekistonda ikki turdag'i oqqanot uchraydi. Birinchi issiqxona oqqanoti, ikkinchisi g'o'za oqqanoti. Oqqanot asosan issik xonalarda tarkaladi. Sabzavot ekinlariga bir necha turdag'i tunlamlar jiddiy zarar keltiradi. Bular gamma tunlami, ko'sak qurti, ildiz qurti, yovvoyi tunlam, undov tunlami va boshqalardir.



33-rasm. Issiqxona oqqanoti



34-rasm. G'o'za oqqanoti.

G'o'za tunlami (ko'sak qurti) - ***Heliothis armigera*** Hb. (II qismning 2-bobida chuqur ta'riflangan). 0'zbekistonda g'o'za-dan tashqari pomidorning ham ashaddiy zararkunandala-ridan biri hisoblanadi. Zararkunandaning barcha (3-4) bo'g'i-ni bu ekinda rivojlanishi mumkin. Zararkimanda tuxum-larini o'simiikning shona, gul va tugunchalariga yakka-yakka qilib qo'yadi.

Tuxumdan chiqqan qurtlar o'simlik shona, gul va mevasini kemirib ichiga kirib oladi. Har bir qurt 10-12 hos.il nishonalarini shikastlashi mumlcin. Zararlangan hosil qurib qoladi, yiriklari esa chiriydi. Ayrim


68

hollarda (ko'proq YUsupov nomli navda) zararlangan yirik mevalar chirimaydi, baiki chandiq hosil qilishi mumkin, lekin sifati va mahsulot ko'rinishi yo'qoladi.

Hamma navlar ko'sak qurti bilan bir xilda zararlanavermaydi: YUsupov navi eng kuchli, Volgograd 5/95 va Talalixin navlari esa kamroq zararlanadi. Lekin umuman zararlanmaydigan pomidor navi yo'q. Ayrim yillari hosildorlik 50% gacha kamayishi mumkin.

**Kurash choralar.** 1. Bu zararkunandaga qarshi tavsiya etilgan (II qism 2-bob) agrotexnik choralar majmuini amalga oshirish. 2. G'o'za tunlamini feromonidan foydalanib, har bir paykalda uning rivojlanish darajasini belgilab borish. Kapalak ucha boshlab, har kechada bir tutqichga o'rtacha 2-3 dona kapalak tutilsa, darhol shu dalaga trixogramma kushandasini beigilangan yo'nalihsda qo'yish, qurtlar paydo bo'lsa, har gektarga 1:10-15 nisbatda brakon kushandasini chiqarish yoki dendrobatsillin, bitoksibatsillin (3-4 kg/ga) yoki dipel (1-1,5 kg/ga) nomli mikrobiologik preparatlarni 2 marta (har 7-10 kunda) purkash. Bu tadbirlami g'o'za tunlamining har bo'g'i-niga qarshi o'tkazish lozim.

Alohidagi vaziyatlarda kimyoviy insektitsidlami ishlatish mumkin. Tadqiqotchi M. Rashidov (1981-1985) tomonidan o'tka-zilgan maxsus izjanishlar shuni ko'rsatdiki, pomidorda ko'sak qurtining zarari o'rtacha har toTta o'simlikka bitta yosh qurt to'g'ri kelsa vujudga keladi. Pomidorda ishlatish uchun faqat quyidagi insektitsidlar ruxsat etilgan: **avaunt** - 0,4 1/ga va **benzofosfat** (zolon) - 2,3 1/ga (8-jadval).



35-расм. Сабзавот экинларининг эараркунандалари.

**Agrotexnik kurash:** Almashlab ekish, qator oralariga ishlov berish.

**Biologik kurash:** Sabzavotlardagi tunlamlaming tuxumlariga qarshi xar gektar maydonga 1 grammdan trixogramma va kichik yoshdagagi qurtlariga qarshi kurash uchun oltinko'zni 3-4 kunlik tuxum ini zararkunanda soniga qarab 1:10, 1:5 nisbatlarda xamda katta yoshdagagi qurtlariga qarshi brakoni 1:10 va 1:20 nisbatlarda chiqarish.


**Kimyoviy usul:** Agarda tunlamlaming miqdori ko‘p bo‘lganda quydagи preparatlardan birini qo‘llash tavsiya etiladi:

Avaunt 15% li sus.k. 0,4-0,45 1/ga; siperfos 55% em.k. -1,51/ga; deltafos 36% em.k.-1,5 1/ga; politrin 35% em.k.-11/ga; Detsis 2,5% k.e.-0,71/ga, mospilan 20% n.k. -0,3 1/ga; Nurell-D 55% em.k. -1,51/ga; sumi-alfa 20% em.k - 0,15 1/ga va boshqa ruxsat etilgan dorilar bilan ishlov berish tavsiya etiladi.

#### **14- laboratoriya mashg‘uIoti Sabzavot va kartoshka ekinlarini zararli organizmlar va ularga karshi choralar.**

**Kemkh' jihozJar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH- millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, lupa, hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O‘rganish ob’ektlari:** Har xil hasharotlarning kolleksiyalaridan foydalanamiz.



**36-rasm. Pomidor zang kanasi Ishning bajarish tartibi:** Pomidor zang kanasi juda mayda, oddiy ko‘z bilan ko‘rib bolmaydigan bo‘g‘imoyoqii jonivor bo‘lib, nimfasi 100 mk

(mikron), etuk zoti esa - 135-160 mk keladi. Rangi tiniqdan sarg‘ishgacha. Tanasi cho‘ziq, silindrsimon, orqa uchi torayib tukchalar bilan yakunlangan, 2 juft oyoqlari bor (36-rasm).

**Hayot kechirishi.** Pomidor zang kanasi yil davomida rivojlanishi ham mumkin. Bimda ochiq erdagи ekinlardan kuzda issiqxonalarga o‘tib rivojini davom etadi. Ko‘p qismi yozda qaerda rivojlangan bo‘lsa, o‘sha erda qishlab qoladi. Bunda ernen ustld qatlamida, xascho‘plar orasida nimfa holatida qishlaydi. Zararkunanda uchun eng maqbui sharoit - bu havo haroratining 25-30°S, namligining esa 30-40% boiishidir. Ushbu sharoitlarda kana rivojlani

shining bir bo‘g‘ini 7 kunda ado etiladi. Bir mavsumdakana 15 dan 25 ta-gacha bo‘g‘in berishi mumkin, shulardan 10- 15 tasi iyun-avgustda o‘tadi.

**Zarari.** 0‘tkazilgan maxsus tadqiqotlardan ma’ium boMishicha, pomidor zang kanasi asosan pomidor va kartoshkada bermalol va tez rivojlanadi. Undan kevingi o‘rinlarni qora va qizil ituzum, qo‘ypechak va baqlajon egallaydi. Qolgan ekinlarda zang kana rivojlna olmasligi tasdiqlangan.

Kana o‘simlik barglarining ham ustld, ham ostki tarafmi bosishi mumkin. Dastlab o‘simlikning pastlici barglari, novdalari zararlana boshlaydi. U asta-sekin yuqoriga tarqab ketadi. Zararlangan novda qo‘ng‘ir tusga ega bo‘lib silliqlashadi, barglarida esa sariq dog‘lar paydo bo‘lib, umumiy tusi qo‘ng‘ir bo‘la boshlaydi. Zararlangan gul va mayda meva nisho-nalari hamda barglari qurib to‘kilib ketadi, yirik mevalarning yuzida to‘r singari rasm paydo bo‘lib, tirishib yoriladi.

Bunday mevaning sifati va ko‘rinishi yo‘qoladi, qisman chiriy boshlaydi. Qattiq zararlangan o‘simlik hosili 100% nobud bo‘ladi. Ayniqsa iyul-avgust oylarida pomidor va kechki kartoshka ko‘p talofat ko‘radi.

Kartoshkaning ham novdalari silliqlashib, qo‘ng‘ir tusga kiradi, barglari (pastdan boshlab) quriydi, sarg‘ayadi va vaqtidan ilgari qurib, hosil bermaydi. Zai’arlangan o‘simlik mevalarida (pomidor, kartoshka) sifat ko‘rsatkichlari o‘zgaradi: nordonligi 32-35% ga Ico/payadi; tarkibidagi quruq moddalar kamayadi: qand moddasi 45-72% ga, askorbin kislotasi 41-61,8% ga, karotin 12-70% ga, quruq oqsil 52-39% ga.

**Kurash choralari.** 1. Pomidor va kartoshka ekinlarini o‘zaro uzoqroq masofada joylashtirib ekish. 2. O‘simliklarni bardoshli, ya’ni baquvvat qilib o‘stirish, ulardagi boshqa zararlamanalarga (shira, kolorado qo‘ng‘izi) qarshi o‘z vaqtida kurash olib borish, hosil yig‘ishtirilgandan keyin o‘simlik qoldiqlarini daladan olib chiqib tashlab, emi shudgorlash va qishda yaxob suvini berish.

3. Kimyoviy kurash sifatida quyidagi akaritsidlardan foydalanish mumkin: **oltingugurt** kukuni (15 kg/ga), **karate-** 0,3 1/ga, **talstar** - 0,5 1/ga, **neoron** - 1 1/ga, **mitak** - 2 1/ga, **omayt** - 1,5 1/ga.


#### **Karam oq kapalagi.**

Karam oq kapalagi g‘umbaklik bosqichida eski binolarda, devor yoriqlarida, daraxt tanalarida va butalar orasida qishlab chiqadi.

Aprel-may oylarida kapalaklari uchib chiqib otalangan urg‘ochi zotlar har biri 250-300 tuxumlarini karam barglariga to‘p-to‘p qilib qo‘yadilar.

Qurtlari karam barglarini yoppasiga kemirib oziqlanib barglarni faqat

yo‘g"on tomirlarmi qoldiradi.Qurtlari 15-30 kun oziqlanib, daraxt va butasimonlar tanalarida tashlandiq binolar devor yoriqlarida g‘umbakka o‘tadi Karam oq kapalagi O‘zbekiston sharoitida 3-4 avlod berib rivoj lanadi. (43 -rasm)




**37-rasm. Karam oq kapalagi.**

**Kimyoviy usul:** 5% o‘simlikda zararkunanda tuxum va qurti mavjud bo‘lsa karam oq kapalagini zarar etkazish xavfi bo‘lgan dalalarda karamga detsis,25% em.k.-0,3 1/ga; Fufanon 57% em.k. - 0,6-1,2 1/ga;Kinmiks,5% em.k. - 0,15-0,2 1/ga; Lyumetrin,12% em.k.- 0,45-0,6 1/ga; Sumi-alfa,5% em.k.-0,2 1/ga; Esfen-Alfa,5% em.k.- 0,2 1/ga; Superkill,25% em.k.- 0,16

1/ga, sipi,25% em.k. -0,16 1/ga, Siraks,25% em.k.-0,16 1/ga; sipermetrin,25% em.k. - 0,11/ga, fenkill bilan ishlov beriladi

**Kolorado qo'ng'izi** kartoshkaning eng xavfli zararkunandasi bo'lib, respublikamizning Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashqari barcha viloyatlarida tarqalgan. Kolorado qo'ng'izi oval, bo'rtgan tanaga ega bo'lgan qo'ng'izining uzunligi 9-12 mm keladi. Old elkasida qanotlari sarg'ish yoki sarg'ish-qizil. Old elkasida 12-14 ta qora dog'lari bor. 0'rtadagi dog'lari yirik bo'lib «U» beigisini eslatadi. Har bir ustki qanotida 5 tadan qora chiziqlari mavjud, yaxshi uchadi.



38-rasm. Kolorado qo'ng'izi rivojlanish bosqichi.

£

Tuxumining uzunligi 1,2-1,8 mm bo'lib cho'ziq-oval, yaltiroq, oldin sariq, so'ngra to'q sariq tusda. Lichinkasining uzunligi 15-16 mm, bo'rtgan shaklda, to'q sariq-qizil. Tanasining o'rta qismi old tomonidan keng, orqa qismi uchlilangan (53-rasm). Old elkasida ko'ndalangiga joylashgan qora dog'i bor, yonida esa ikki qator segment nuqtalari mavjud. G'umbagi ochiq tipda, uzunligi 10-12 mm, rangi to'q sariqdan qizg'ishgacha.

Respublikainiz sharoitida kolorado qo'ng'izi 3-4 ta avlod berib rivojlanadi. (44-rasm).

Kartoshkadan tashqari u pomidor, ayniqsa baqlajonga jiddiy zarar etkazadi.

**Agrotexnik kurash:** Almashlab ekish, erga ishlov berish, qishda sug'orish va xoqazo.


**Biologik usul:** Padizus va perillus kandalalarini va oltinko'zni qoilash (tuxum va yosh lichinkalariga qarshi).

73

**Kimyoviy usul:** Regent, 4% em.k-0,25 1/ga, karate, 5% em.k-0,1 1/ga,

maspilan, 20% n.k-0,02 -0,0251/ga. Adonis, 4% em.k-0,25 1/ga.

**Kartoshka kuyasi** - *Phthorimaea operculella* Zell. Kapalaklar turkumining o'yiq qanotli kuyalar (*Gelechiidae*) oilasiga mansub.




**39-rasm. Kartoshka kuyasi**

O'zbekistonda uchramaydi, ammo juda xavfli zararkunanda hisoblanadi. Tropik mamlakatlarda kartoshka kuyasi 1 yilda 12-13 bo'g'in berib tinimsiz rivojlanadi. Uning qurtlari kartoshka mevalarini ilmateshik qilib tashlaydi. Bundan tashqari baqlajon, pomidor, tamaki va boshqa o'simliklami ham zararlaydi.

Kartoshkani o'ziga xos zararkunanda va kasalliklari mavjud bo'lib, ularga qarshi qisman kurash olib boriladi. Zararkunandalardan: simqurt, ko'k qurt, oqqanot, kolorado qo'ng'izi va boshqalar shular jumlasidandir. Adabiyotlardan ma'liunki, bu hasharot dunyoning barcha qit'alarida 80 dan ortiq mamlakat xududlarida uchraydi. Uning kelib chiqishi janubiy Amerika qit'asi hisoblanadi. Qiziqarli joyi shu erdaki, bu tropik iqlimga moslashgan tur, diapauzasiz, yozinqishin tinmay rivojlanaverishi mumkin. SHuning uchun ham, u ortiqcha past hararot sharoitida rivojlanishdan to'xtab xatto o'ladi.

Havo harorati o'rtacha  $10^{\circ}$  bo'lganida kartoslika kuyasi rivojlanmaydi,  $3-5^{\circ}$  da esa - o'ladi. Kartoslika kuyasining etuk zoti mayda, kuya kapalaklarga hos kulrang hasharotdir (56-rasm). Qishi sovuq bo'lgan mamlakatlarda uning asosiy qismi qish paytida qirilib ketadi. Faqatgina o'ra va podvallarda harorat  $10^{\circ}$  va undan ortiq bo'igan sharoitdagina qishlab chiqadi.

Bu o'simlikxo'r koxsinellid qo'ng'izining o'ziga xos belgilari borligi uchun darxol aniqlab olish mumkin. Qo'ng'izi yarim doirasimon shaklga ega, tanasining past tomoni yassi, usti esa qavariq, kattaligi 7-8 mm, rangi qizil-qo'ng'ir, ust qanotlarining bar birida 6 tadan qora dog'i bor. Uni 12 dog'li poliz korovkasi deb atashadi. Tuxumi yorqin sariq tusda. U cho'ziq oval shaklda bo'lib, kattaligi 1,75 mm keladi. Lichinkasi sarg'ish tusda, uch juft ko'krak oyoqlari bor, ust tomonida besh qator joylashgan shoxlagan qora tikan-chalari bor, uzunligi 9 mm keladi (46-rasm). G'umbagi koxsinellidlarga xos - orqa uchi bilan bargga yopishib turadi, tanasi qisqarib kengaygan, usti tukchalar bilan qoplangan, rangi sariq.



40-rasm. **Kartoshka kuyasi:** 1 - kartosbkani shikastlagan qurti, 2 - zararlangan barg.

**Hayot kechirishi.** Qo'ng'izi o'zi yashagan erda turli o'simlik qoldiqlarining ostida qishlab chiqadi. Uni qamish poyasida ham topishgan. Bahorda qo'ng'izlarning uyg'onishi ancha cho'ziladi va poliz ekinlarining ko'karish davriga to'g'ri keladi. Qo'ng'izlari ekinlarga uchib o'tib qo'shimcha oziqlanadi, o'simlik barglarining ust tomoniga 20-50 tadan g'uj qilib tuxum qo'yadi.

**Topshiriq:** “Assesment” texnikasidan foydalanib sabzavot ekinlarining zararkunandalaiini aniqlang.

Бахолаш: хар бир катақдаги түгри жавоб 5балл ски 1-S балл

, i : n	<b>1УШУШМШ</b>
Узбекистовда иссикхоналарда гуза ва иссикхона оқканотдари нечта авлодберади? A. 24. B. 4-6. S.6-8. D. 8-10. 1 г 5 на	Окканотянгэнг кап зарари няма билангаохлантигин айтиб беринг ва битта методиканн мөхнатинн ёрптиб беринг?
<b>СИМПТОМ</b>	<b>АМАЛИЙ КУНИКМА</b>
.. исшхона оаданотларн тухумларининг шакли -...	Узнигизга таниш булгзын ва беввсита амалистда куллаб курган i рафик .... органайзерлар методларига „>р мисол келтиринг. П

#### Savoliar:

1. Karam biti morfologiyasi va zarari?
2. Karam va sholg‘om oq kapalagi morfologiyasi va zarari?
- 3 .Issiqxona oqqanoti boshqa qanday ekin turlari ga zarar etkazadi
4. Pomidor zang kanasining lotincha nomi qanday nomlanandi?

#### **15- laboratoriya mashg‘u!oti Moyli ekinlarning zararli organizmlar va ularga qarshi kurash choralar.**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH-millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, lupa, hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O‘rganish ob’ektlari:** har xil hasharotlarning kolleksiyalaridan foydalanamiz.

*Ishning bajarish tariibi:* Maxsar kapalagi-*Myelois cinctipalpell*<sub>a</sub> *Christoph* - Bu hashorat masxar ekiniga tushadigan eng **xavflj** zararkunandalardan biridir. Bu zararkunanda o‘siralik gunchasini nobud qiladi, poyasini kemiradi, gulini shikastlaydi, boshchasi dagi uruglarni eb barcha urugni yo‘q qiladi. Kechikib ekilgai maxsarda kapalak o‘sirnlilc poyasining uchini

shikastlaydi; bunday hollarda o'simlik faqat yotl shoxlaridan hosil tugadi.

Kapalagi qanot yozib turganda taxminan 2,5 sm kattalikda; oq tusda bo'ladi; oyog'ining boldiri va panja bo'g'imlarida kul tu<sub>s</sub> halqachalar bor; rno'ylovi esa qora va oq halqachali; oldingi qanotida (yuqorirog'ida) qora dog'chalardan iborat ko'ndalang yo'li bor; qor<sub>a</sub> dog'chalai- yo'ii qanotining oldingi cheti bo'ylab ham o4adi. Bundan tashqari, qanotlarining asosida, qanot o'rtasida, oldingi uchdan bir **qismi** chetida bittadan hamda qanotning uchdan ikki va uch qismi chetida ikkita dog'cha bor; keyingi qanotida uning orqa chetida ham kul tus dog'chalar boiadi. Keyingi qanot oldingisidan kengroq.



**41- rasm. Maxsar pashshasi.**


Maxsar *pashshasi* - *Ttypetidae*-maxsar pashshasi (Acanthi ophilug helianthi Rossi.) zarar etkazadi. Maxsar pashshasi maxsarning doni boshlang'ichini yo'q

qiladi. Maxsar pashsha 4-7 mm kattalikda, qo'ng'ir, deyarli qora tusda; qorni ko'kragidan qoraroq; boshi, elkasi, qalqonchasi, mo'ylovi va oyoqlari sariq bo'ladi. Pashshaning tanasi kul tus g'ubor va qoramtil tuklar bilan siyrak qoplangan; qalqonchasida d.ag'ai tuklaxdan to'rttasi joylashgan. Rangsiz qanotida dog'chalardan tashkil topgan o'zgaruvchan kul tus naqshlar bor. Urg'ochisida yirik yaltiroq qora tuxum qo'ygichi bor.

Maxsar pashshasining tuxumi oq tusda, urchuqsimon bo'ladi. Lichinkasining bo'yi 8 mm cha, oq rangda, tanasi cho'ziq bo'lib, oldingi uchi ingichkalashib ketgan, oyog'i va alohidatalashgan boshi yo'q, tanasidagi so'nggi segmenti to'mtoq.

Kungaboqar parvonasi-Homoeosoma nebulella Hb.Ushbu zararkunanda kungaboqaming asosiy va eng havfli zararkunandi hisoblanadi; chunki bu zararkunanda ko'plab paydo bo'lgan vaqtarda kungaboqar hosili deyarli batamom nobud bo'ladi.

Kungaboqar kapalagining qurtlari yoppasiga o'simlik boshinin va xali pishmagan savatchasini kemirib nobud qiladi.



42-rasm. Kungaboqar parvonasi.


Kapalagi qanotini yozib turganda 2-2,7 mm kattalikda bo'ladi; oldingi qanoti ensiz, oqish yoki kul rangda, qanotining o'rtasiga

yaqinroq joyida hamma vaqt aniq ko'rini turmaydigan to'rtta qoramtil nuqta bor; keyingi qanoti birmuncha enliroq va oqishroq bo'ladi, Kapalakning paypaslagichlari yuqoriga qayrilgan; oldingi qanotida uchinchi radial tomir yo'q;

keyingi qanotidagi medial tomir ikkita shoxlagan.

Mingdevona tunlami kapalagi qanot yozib turganida 3-4 smkattalikda; sarg'ish-kul tus rangda; oldingi qanotida ba'zan ko'ndalangiga o'tgan qoramtil yo'li bo'ladi. Noctuidae oilasidan bo'Mgan bu tunlamning buyraksimon dog'chasi qora hoshiyali kul tus rangda bo'ladi; bu buyraksimoi dog'dan to qanotning oldingi chetigacha keng qoramtil yo'l o'tadi. Keyingi qanoti oldingisidan birmuncha oqish, ammo ba'zan har ikkisi bir xil rangda bo'Madi.

Keyingi qanotining tashqi chetida qo'ng'ir-kul tus rangli keng belbog'-yo'l bor; bu yo'l o'rtasida oysimon kichkina dog'cha joylashgan. Mingdevona tunlami (kapalagi) g'o'za tunlami kapalagiga o'xshaydi, faqat mingdevona tunlamining oldingi qanotida buyraksimon dog'chadan qanotning oldingi chetigacha o'tgan qoramtil yo'lga qarab uni ajratib olish mumkin.



43-rasm. Ming'



Qanday?» diagrammasi

**Savollar:**

- 1 .Moyli ekinlarining zararli organizmlariga ta’rif bering?
2. Mingdevona tunlamining morfologiyasini aytib bering?
- 3 .Maxsar pashhasi qanday zarar keltiradi?


**16- laboratoriya mashg‘uloti Tokning zararli organizmlar va ularga qarshi kurash choralari**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH- millivoltinetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog‘i, biologik xavfsizlik boksi ,spektrometrofotometr, hasharotlar kolleksiyasi *Ishning bajarish tartibi:*

**Unsimon uzum va komstok qurtlari (chervetslar).** Har ikkala hasharotning tuzilishi, hamda hayot kechirishi bir biriga yaqin bo‘lganligi uchun birga ta’riflanadi. Unsimon uzum qurti

- *Pseudococcus citri* Risso, komstok qurti esa - *Ps. somstocki* Kuw. deb atalib, tengqanotilar (Homoptera) turkumiga, Pseudococcidae - unsimon qurtlar oilasiga mansub. Bu hasharotlar orasida ayniqsa komstok qurti keng tarqalgan bo‘lib, uni O‘zbekistonning barcha xududlarida uchratsa bo‘jadi. Unsimon uzum qurti esa uncha keng

**Ta’rifi.** Bu hasharotlarning tashqi tuzilishida jinsiy dimorfizm, ya’ni turli tarqalgan bo‘lmasada, ahyon-ahyonda uzumga kuchli xuruj qilishi mumkin (58-rasm).



45~rasm. Unsimon uzum qürti: 1-urg‘ochi zoti, 2-erkakzoti  
2

shakllanish keskin ko‘zga tashlanadi. Urg‘ochisi - qanotsiz, beso‘naqay, qattaligi 3,5-4 mm keladigan sekin xarakatlanadigan o‘ziga hos yassi shaklga ega qurtdir; tanasining atrofida etarlicha uzunlikka ega 17 juft mumsimon ip sifat to‘siqlari bor. Bu o‘sqliaming ohirgi jufti qolganlaridan uzun bo‘lib «dum» shaklida bo‘ladi. Qizig‘i shu erdaki, har fikala turga mansub urg‘ochi zotlami ayni shu belgi ajratib turadi: Komstok qurtining uzun o‘simaltalarini tanasining yarmicha keladigan uzun bo‘lsa, qurtining o‘simaltalarini esakaltaroq.

**Kurash choratari.** 1. Tashkiliy-xo‘jalik va o‘simlik bardoshliligini oshiradigan agrotexnik chora-tadbirlar. 2. Biologik usul sifatida unsimon qurtlarning samarali kushandasasi - psevdafikus (*Pseudaphicus malinus* Gah.) qo’llaniladi. Undan tashqari tabiatda bu qurtlarning boshqa samarali kushandasasi ham bor. Masalan, bona mushkasi (pashshasi) - *Leucopis bona* Rohd. Uning lichinkalari komstok qurtining ko‘plab qismini qiradi (YAxontov, 1963). 3. Kimyoviy kurash sifatida turli sintetik piretroid hamda fosfororganik insektitsidlar qo’llaniladi. Toklarga mavsum mobaynida 2-3 marta ishlov berish lozim. Oxirgi ishlov uzum etilishidan 30 kun ilgari tugallanishi shart.

**Tok kanasi - *Eriophyes vitis*** Nal. To‘rt oyoqli kanalar - ***Eriophyoidea*** Reibevo bosh oilasining, ***Eriophyidae*** oilasiga mansub.

**Tarqalishi.** Dunyo bo'yicha keng tarqalgan zararkunanda. O'zbekistonning barcha hududlarida uchraydi.

**Ta'rifi.** Tok kanasi ko'zga ko'rinnmaydigan darajadamayda mavjudot (0,14-0,16 mm). Uni faqat binokulyar yoki 15-20 marta kattalashtirib ko'rsatadigan lupalar yordamida ko'rish mumkin. Tok kanasining tanasi cho'ziq, 2 juft oyoqqa ega, tana oxirida uzun qillari bor. Tokda kana borligini barglarda g'uddalar mavjudligidan bilish mumkin. G'uddalar bargning ustki tomonida bo'ladi, ost tomonida esa chuqurchalar mavjud bo'lib, ularda oldin oq-kumush keyinchalik qizg'ish-qo'ng'ir tus oladigan hujayra o'si:mtalari qoptanib olgan bo'ladi (59-rasm).



**Hayot kechirishi.** Tok kanasi po'stloq osti hamda kurtak atroflarida qishiab chiqadi. Bahorda (aprel oxiri-may) uyg'onib, yangi paydo bo'mgan barglarni zararlay boshlaydi. U quyidagi fazalami kechiradi: tuxum, 1-nimfa, 2-nimfa va etuk zot. Otalangan tuxumdan urg'ochi va erlcak zot, otalan-maganidan esa faqat erkak zot ochib chiqadi. Mavsumda bir necha bo'g'in beradi.

**Zarari.** Tok kanasi ko'proq mahalliy nav uzumlarni xush ko'radi, ayrirn navlar umuman zararlanmaydi. Zararlangan tok rivojlanishdan orqada qoladi, hosilning sifati yomonlashadi va miqdori kamayadi.

**Kurash chorralari.** 1. Tok kanasi ko'proq erda yotgan uzumlarni zararlaydi, shu bois tok poyasini ishkomlarga (shpalerlarga) ko'tarish lozim. 2. Kimyoviy kurash yaxshi samara beradi. Buning uchun oltingugurt kukunini un-shudring kasaliga qarshi changlatib turilsa u tok

kanasini ham qiradi. Maxsus akaritsidlardan omayt (0,15%) va neoron (0,1%) qo'llaniladi.

**Uzum mevasining zararkunandalari.** Uzum mevasiga tashqi ko'rinishi va hayot kechirishi bir-biriga juda o'xshash barg o'rovchi (*Tortricidae*) kapalaklar oilasiga mansub 2 tur hasharotlar zarar keltirishi mumkin. Bular tok barg o'rovchisi *Spargemothis pilleriana* hamda shingil barg o'rovchisi *Polychrosis botrana* hisoblanadi. Har ikkalasi ham namliksevar (stenogigrobiont) tur bo'lib, ko'proq so'riga ko'tarilmaydigan toklaming mevasiga xuruj qiladi, shuningdek meva donalari zikh joylashgan navlarni (qora kishmish, charos, muskat) xush ko'radi.

**Ta'rifi.** Tok barg o'rovchisining kapalagi biroz yirikroq (qanot yozganda 12-15 mm) bo'ladi. Oldingi juft qanolari och sariq yoki och kulrang, yaltiroq, o'rtasida ko'nda!ang joylashgan keng qoramtil dog'i va kumush rang jilosi bor. Orqa qanolari kulsimon qo'ng'ir rangda, erkaginiki esa och rangda bo'ladi. Tuxumi oq, yassi, kattaligi 0,65-0,9 mm keladi. Qurtining boshi qora, tanasini mayda qoramtil so'galchalar bosgan, katta yosh qurtning uzunligi 14 mm keladi, rangi yashilroq-pushti yoki qizg'ish bo'lib, mayda siyrak tuklar bilan qoplangan. G'umbagi jigarrang, uzunligi 5-5,5 mm keladi, oq pilla ichida joylashadi.

\* **Hayot kechirishi.** Tok barg o'rovchisi g'umbaklik shaklida asosan po'stloq osti va boshqa pana joylarda qishlab chiqadi. Bahorda (aprel) kapalaklar uchib chiqib qo'shimcha oziqlangach, urchib tuxum qo'yishga kirishadi. Har bir zot 50-70 ta tuxumni asosan yakka-yakka qilib shingil donalariga qo'yadi. Ochib chiqqan qurtlar shingil bilan oziqlanadi, uni o'rgimchak iplari bilan o'rab oladi. Bu hasharot qurtlari ba'zan yosh novda ichini ham o'yib kiradi. Olti yoshni o'tgach, yupqa pilla o'rab, ichida g'umbakka aylanadi. 1-1,5 haftadan keyin yangi bo'g'in kapaiaklari uchib chiqadi. 0'zbekiston sharoitida 3-4 ta bo'g'in beradi. Kuzning oxirgi oylarida g'umbak shaklidagilari qishlovga ketadi, qolgan shakllari o'lib ketadi.

**Zarari.** Tok barg o'rovchisining zarari asosan uzumning sifati va hosildorligi pasayishida namoyon bo'ladi.

**Kurash chorralari.** 1. Tokni barg o'rovchidan saqlashning asosiy yo'li oldini olishdir. Buning uchun, asosan Samarqand, Jizax va boshqa viloyatlarda tarqalgan ishkomsiz o'stirish usulidan voz kechib, tokni sim shpalerlarga yoki yog'och ishkomlarga ko'tarib o'stirishni yoMga qo'yish keralc. 2. Biologik kurash sifatida biolaboratoriyalarda ko'paytiriladigan brakondan zararkunandaning

qurtiariga qarshi foydalanish mumkin. 3. Kimyoviy kurash uzum gullahidan oldin va undan keyin 2 marta o'tkaziladi. Buning uchun sintetik piretroidlar, fosfororganik preparatlar hamda avaunt (0,4 1/ga) va dimilindan (0,3 1/ga) foydalaniladi. Ishlov berish hosil etilishidan 40 kun ilgari to'xtatiishi lozim (bu davrda brakonni ishlatish mumkin).

SHingil barg o'rovchisi - *Polychrosis botrana*. O'zbekistonda, ko'shni davlatlarda, hamda Evropa, Afrika, SHimoliy Amerika kit'alarining ko'pgina davlatlarida tarqalgan.

**Ta'rifi.** Kapalagi 12-13 mm keladi. Oldingi qanotlari qovng'ir rangli bo'lib, ko'ndalangiga joylashgan ikkita och bogMchi bor. Orqadagi qanotlari kulrang, asosi tashqi chekkasiga nisbatan ochroq. Tuxumlari (0,5-0,7 mm) sariq, ust tomoni yassiroq. Outlining uzunligi 12 mm gacha boradi, boshi qoramtil-qo'ng'ir, tanasi sargMmtir-yashil, sezilar-sezilmas dog Mar va tuklar bilan qoplangan. G'umbagi (5-7 mm) qo'ngMr, yumshoq pilla ichiga o'ralgan boMadi (60-rasm).

**Hayot kechirishi.** Bu hasharot ham g'umbak shaklida po'stloq ostida hamda boshqa pana joylarda qishlab chiqadi. Aprel-may oylarida kapalaklar uchib chiqib uzum shingillariga tuxum qo'ya boshlaydi. Ochib chiqqan qurtlar 12-18 kun oziqlanib g'umbakka aylanadi va 8-10 kundan so'ng yangi bo'gMn kapalaklari paydo boMadi. O'zbekiston sharoitlarida mavsumda 3-4 ta bo'gMn beradi. Zararkunanda namsevar boMgani uchun asosan erda qoldirilgan uzum poyasini xush ko'radi, ammo ishkomga koMarilgan tokni ham zararlashi mumldn.

**Zarari.** SHingil barg o'rovchisining qurtlari zararlagan uzum donasi mikroorganizmlar ta'sirida chiriy boshlaydi. Bundan tasbqari, boshlab berilgan zarar arilar tomonidan davom ettirlladi, oqibatda uzum hosildorligi keskin pasayib ketadi.




47-rasm. **Sffingil barg o'rovchisi** (G. Vanek va b. ma'lumoti bo'yicha): 1-qurti; 2-kapalagi; 3-shingil boshlanishda zararlanishi; 4-shingildagi g'o'raklaming zararlanishi; 5-g'umbagi (pilla ichida).

**Kurash choralari.** Har ikkala barg o'rovchilaming hayot kechirishi va zarari bir-biriga o'xshash, shu bois ularga deyarli bir xil usulda kurashiladi.

Arvoх kapalak yoki brajniklar. Kapalaklaming (*Lepidoptera*) arvoх kapalaklar (*Sphingidae*) oilasiga mansub. O'zbekistonda uchta turini uchratish mumkin: o'rta vino brajnigi (*Pergesa elpenor* L.), allekto brajnigi (*Theretra alecto* L.) va lineykasimon brajnik (*Celerio livornica* Esp.) (YAxontov, 1963). Tashqi ko'rinishi, hayot kechirishi va zarari bir- biriga juda o'xshash, qarshi kurashish usullari ham bir xil.

**Tarqalishi.** Brajniklar 0'rtा Osiyo mamlakatlardan tashqari ko'pgina chet davlatlarda ham tarqalgan.

**Ta'rifi.** Kapalagi juda yirik (6-7 sm), o'ziga xos silliq (zamonaviy samolyot shaklida) va ko'rksamdir. Ba'zan uylarga kirib qoladigan yoki kechasi hovlidagi chiroqqa uchib keladigan yirik kapalaklar shular jumlasidandir. Old qanolari och qo'ng'irdan zaytundek yashilgacha, tashqi chekkasi gunafsha rangli bo'lib, pushti tusda tovlandi. Uchidan orqa chekkasigacha qiyshiq holda ikkita kambar gunafsha yo'l ketadi. Orqa qanolari pushti, asosi esa qora. Tanasi qalin tuklar bilan qoplangan, ikki yoni qizil, usti zaytunday yashil, uzunasiga ketgan pushti yo'llari bor. Qurti yirik - 10 sm ga yaqin. Rangi yashildan och qo'ng'ir-yashilgacha, 4- 5 segmentlari yonida bittadan qora hoshiyali yirik dog'lari bor. Dog'larning o'rtasida yarim oy shaklida rangsiz yadroси bor, qurt tanasining orqa uchida uzun (5 mm va undan ortiq) o'sig'i bor. Bu brajnik qurtlariga xos belgilardandir (61-rasm). G'umbagi 3-3,5 sm keladi, rangi och qo'ng'ir, qora nuqtalari bor.




**48-rasm. Brajmknинг katta yoshdagи qurti.**

**Hayot kechirishi.** Brajniklarning hayoti yaxshi o'rganilmagan. Ma'lumki bu hasharoqlar g'umbak shaklida tuproqda qishlab chiqadi. May-iyun oylarida

kapalaklar paydo bo'lib, yakka-yakka qilib tuxum qo'yadi. Qurtlari uzum bargini kemirib shikastlaydi. Bu paytda brajnik qurti mavjudligini tok ostiga to'kiladigan silindrik shakldagi axlatidan bilsa bo'ladi. Qurti odatda tok novdasiga yopishib olib bargi va novda uchi bilan oziqlandi. Mavsumda 2 bo'g'in berishi mumkin.

**Zarari.** Brajniklar uzumdan tashqari boshqa o'simliklar bilan ham oziqlanishi mumkin. Odatda brajniklar tokning ikkilamchi zararkimandasi hisoblanadi. Ammo ayrim paytda u ko'plab urchishi mumkin, bu paytda ularga qarshi maxsus kurash choralari qo'llaniladi. Odatda tokda brajnik qurti kam miqdorda bo'Msa, uni qo'ida terib tashlash ham mumkin.

#### Mavzu asosida Master jadvalini to'Miring



**Nazorat savollari:**

1. Tolming zararli organizmlariga ta'rifbering?
2. Arvoh kapalak yoki brajniklarning morfologiyasini aytib bering?
3. Unsimon uzum qurti qanday zarar keltiradi?


**17- laboratoriya mashg'uloti Mevali ekinlarni  
zararli organizmlar va ularga karshi choralar.**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH- millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog'i, biologik xavfsizlik boksi, spektrometrofotometr, lupa, hasharotlar kolleksiyalari, tarqatma material.

**O'rghanish ob'ektlari:** har xil hasharotlarning kolleksiyalaridan foydalanamiz.

**Ishning bajarish tartibi: OLMA QURTI.**

Bu zararkunanda xammaxo'r bo'lib, 30 turdan ortiq mevali daraxtlaming mevasi bilan oziqlanadi. Ko'proq olma, nok, yong'oq va olxo'rining asosiy zaxarkunandalaridan biri hisoblanadi. Olma qurti 1 yilda 3 ta avlod beradi. Ular g'umbak ichida katta yoshli qurt shaklida daraxt po'stloqlari orasida, boshqa himoyalangan joylarda va bog' iehidagi shoxlar ostida qishlaydi. Erta ko'klamda bu qishlab chiqqan qurtlar g'umbakka aylanadi. Olma gullashi boshlanganda g'umbakdan kapalaklar uchib chiqib olma barglariga va meva tugunchalariga tuxumlarini qo'yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar barg va meva eti bilan, keyinchalik uning urug'i bilan oziqlanadi. Har bir qurt 2-3 tadan mevani zararlaydi (26- rasm).



49-rasm. Olma qurti va uning zarari.

Mevaga kirgan joyida chiqindisini ko'rish mumkin. Qurt etilgandan so'ng mevadan chiqib, daraxt ustida yoki yaqinida himoyalangan holda g'umbakka aylanadi.

**Kurash choralar:**

- bog‘lardatutqichbelbog<sup>4</sup> lari o‘matish;
- pishmay to‘kilayotgan olma, behi va olxo‘rini har 1-3 kunda terib o!ibyo‘kotish;
- olma qurtini yo‘q qilish uchun uning har bir avlodiga qarshi bir martadan kimyoviy ishlov o‘tkazish.

#### **TESHIKCHALI DOG‘LANISH (KLYASTEROSPORIOZ).**

Bu kasallik danakli meva daraxtlarini, ayniqsa, o‘rikning keng tarqalgan kasalligi hisoblanadi. Kasallik bilan o‘simgliklarning asosiy er ustki qismlari: kurtaklari, gullari, gul tugunlari, mevalari, barglari, novda va shoxlari kasallanadi. Kasallik namgarchilik ko‘p bo‘lib, kunduz kuni iliq bo‘lgan vaqtida yaxshi rivojlanadi. Kasallikka uchragan kurtaklar nobud bo‘ladi (27-rasm).



**50-rasm. Teshikchali dog‘lanish.**

Mevalarda kasallik har xil ko‘rinishda yuzaga keladi. 0‘rik mevalari da avvaliga nuqta shaklida juda kichik qizg‘ish-qo‘ng‘ir dog‘lar paydo bo‘ladi. Mevalaming yiriklashishi bilan dog‘lar ham sekin-asta kattalashib boradi. Kasallikka uchragan bargning ko‘pchiligi yoki bir qismi quriydi va to‘kilib ketadi. Bu esa qishlovchi kurtaklarning uyg‘onishiga olib kelib, bunday daraxtlar sovuqqa chidamsiz bo‘lish bilan birga kelgusi yili esa kam hosil beradi. Agar kasallik kuchayib ketsa, bahorda barglar to‘kilishi mumkin, Barg va mevani zararlab xosildorlikni 30-40 % ga pasaytiradi, meva sifati buziladi. Agar bahorda yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lsa mevani kuchli zararlaydi.

#### ***Kurash choralar:***

- tinim davrida fungitsidni sepish bilan birga kasallangan novdalami kesib yo‘q qilish yaxshi samara beradi.

#### **MONILIOZ (KUYDIRGI) KASALLIGI.**

Kasallik bahorda meva daraxtlarining gullari va kurtaklarini nobud qiladi. Urug'li va danakli meva daraxtlarida meva chirishi juda keng tarqalgandir. Mevaning chirishi qo'ng'ir rangli kichkina dog'dan boshlanadi va tez rivojlanib butun mevani qoplaydi. Natijada meva eti yumshab, qo'ng'ir tusga kiradi va mevaning ta'mi o'zgaradi. Agar meva uni yig'ish yoki tashish davrida zararlansa, bunday mevalarda yostiqchalar hosil bo'lmay qorayib yoki ko'kish rangga kirib mumlanib qoladi. Mumlangan asosiy mevalar erga to'kilib daraxt tagida qishlaydi. Daraxtlarda ham ko'pincha mumlangan mevalar tushmasdan qolishi ham mumkin. Zamburug<sup>1</sup> mevaga faqat jarohatlangan joydan kiradi, ayniqsa, bunday jarohatlami olma qurti, qushlar, do'l yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, zamburug' qo'tir (parsha) ta'sirida yorilgan joydan ham 4tiradi (28-rasm). Zamburug\* sporalarining rnevada tez rivojlanishi uchun optimal harorat 24-28 darajadir. Keyinchalik zararlangan mevalar mumlanib qolib, zamburug' shu mumlangan joylarda qishlab chiqadi.



**51-rasm. Monilioz (kuydirgi) kasaliigi.**

**Kurash choraları:** Bu kasallikning oldini olish uchun qishlovchi infeksiyasi bo'lgan mumlangan mevalami terib yo'qotish lozim.

**Урглилар ва данакли мева дарахтларининг зараркунанда ва касалликларига карши курашдаги агротехник тадбирлар:**

Kuzda xazon yig'ishtirilib ko'miladi. so'ngra bog' qayta haydaiadi va daraxtlariing atrofi yumshatiladi.

- Daraxt tanasi va yo'g'on shoxlarining ko'chgan po'stloqlari kuzda, barglar to'kilgandan keyin va erta bahorda yig'ib olib yo'kotiladi.

- BogMarga mineral va mahalliy o'g'itlar solinadi. Buzoqboshi qo'ng'izlar paydo bo'lmasligi uchun meva daraxtlariga go'ngni yaxshilab chiriti b solish kerak.

- Erta bahorda (dori purkashdan keyin) daraxtlaming zararlangan, yorilgan va ayri joylariga bog‘ zamazkasi suriladi, Daraxtlaming tanasi ohak bilan oqlanadi.

- Bog‘larda mavsum boshidan to‘kilgan mevalarni muntazam ravishda terib, darrov xo‘jalik maqsadlari uchun ishlatish yoki yo‘qotish kerak.

**Mevali bog‘larda qo‘llash uchun tavsiya qilingan insektitsidlar:**

*Urug‘ mevali bog ‘ zararkunandalarga qarshi:*

- Avaunt, 15% s.k. (0,35 1/ga);
- Admiral, 10% em.k. (0,5 1/ga);
- Konfidor, 20% em.k. (0,15-0,25 1/ga);
- Karate, 5% em.k. (0,4-0,8 1/ga);
- Benzofosfat, 30% em.k. (2,3-4,6 1/ga);
- Bi-58 (YAngi), 40% em.k. (0,8-2,0 1/ga);
- Detsis, 10% em.k. (0,1-0,15 1/ga);
- Fufanon, 57% em.k. (1,0-3,0);
- Karbofos, 57% em.k. (3,0);
- Nurell-D, 55% em.k. (1,0 1/ga);
- Siperfos, 55% em.k. (1,0 1/ga);
- Nissoran, 5% em.k. (0,6 1/ga).

*Danak mevali bog ‘ zararkunandalalariga qarshi:*

- Benzofosfat, 30% em.k. (1,0-3,3 1/ga);
- Zolon, 35% em.k. (0,8-2,8 1/ga);
- Bi-58 (YAngi), 40% em.k. (1,2-2,0 1/ga);

90

- Nugor, 40% em.k. (1,2-2,0 1/ga);
- Danadim, 40% em.k. (1,2-2,0 1/ga);
- Omayt, 57% em.k. (0,9-1,2 1/ga);
- Detsis, 2,5% em.k. (0,5 1/ga);
- Fufanon, 57% em.k. (1,0-3,0).

*Izoh:em.k.- emulsiya konsentrati; s.k. - suspenziya konsentrati.*

Mevali bog‘larda qo‘llash uchun tavsiya qilingan fungitsidlar: *Urug‘ mevali bog ‘ kasalliklariga qarshi:*

- Bayleton, 25% n.k. (0,15-0,4 kg/ga);
- Batir, 25 % n.k. (0,4 kg/ga);

- Vektra, 10% s.k. (0.3 l/ga.);
  - Impakt, 25% s.k. (0.1 l/ga.);
  - Sapro 20% em.k. (1.0 l/ga.)
  - Topaz, 10% em.k. (0.2 - 0.3 l/ga.);
- Topsin-M, 70% n.k. (1.0 kg/ga).

*Danak mevali bog ‘kasalliklariga qarshi:*

- ε - Bayleton, 25% n.k. (0.06 - 0.12 kg/ga.);
- Bordo suyuqligi (30,0-60,0 kg/ga - mis kukuni bo‘yicha);
  - Mis kuporosi, 98% n.k. (15,0-20,0 kg/ga.);
  - Temir kuporosi 53% n.k. (30,0-40,0 kg/ga.).

*Izoh:* et.k. - emulsiya konsentrati;

s.k. - suspenziya konsentrati; n.k. - namlanuvchi kukun.

Topshiriq. Mavzu asosida meva daraxtlarining zararli organizmlarini Klasterini tuzing.



#### Savollar:

1. Olma qurtiga qarshi qanday kurash choralar qo‘Haniлади?
2. Parsha vateshikli dog‘lanish kasalliklariga qarshi qanday kurash choralar o‘tkaziladi?
3. Bog‘larda oltinko‘z va trixogramma qanday maqsadda qollaniladi?
4. Sitrus zararkunandalaridan qandaylarini bilasiz?

## **18- laboratoriya mashg'uloti Sitrus ekinlarini zararli organizmlar va ularga karshi choralar.**

**Kerakli jihozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH-millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog'i, biologik xavfsizlik boksi ,spektom etrofotometr, hasharotlar kolleksiyasi,qo'I lupa,tarqatma materiallar

**Mining bajarish tartibi:** *Hdr* ikkala hasharotning tuzilishi, hamda hayot kechirishi bir biriga yaqin bo'lganligi uchun birga ta'riflanadi.

**Tur - Sitrus oqqanoti - *Dialeurodes citriAshm*  
oila - aleyrodidlar - Aleyrodidae turkum  
- tengqanotlilar - Homoptera**

Bu zararkunanda asosan lichinkalik davrida sitrus o'simliklami so'rib zarar etkazadi. Voyaga etgan hasharotning uzunligi 1,6-2mm. Tuxumi 0,24-0,32 mm, ellipssimon, sargish rangda. Birinchi yoshdagagi lichinkalari (brodyajka) 0,21-0,34 mm och sarg'ish, ovalsimon, tana, chetida kalta tukchalari bor. 2 yoshdagagi 0,57-0,66 mm, 3 yoshdagagi 0,91- 1,7 mm, 4 yoshdagagi yumaloq och jigarrangli. Ba'zan 4 yoshdagagi iichinkalarni pupariyalar debataladi.



**52-rasm. Sitrus oqqanoti**

Qishlash fazasi lichinka, dekabr oyidan 4 yoshdagagi lichinkalar paydo bo'ladi va aprel oyining oxirida hamma lichinkalar shu yoshga etadi. May oyida voyaga etgan hasharotlar keyin tuxum qo'yishini boshlaydi. Bahorgi uchish vaqtiga 3-4 haftaga cho'ziladi. Urg'ochi tuxumini bittadan yoki to'p-to'p qilib bargning orqa qismiga. 125 tagacha (60-170) qo'yadi.

Iqlm sharoiti qulay bo'lsa, 225 ta gacha tuxum qo'yishi mumkin.

Embrional rivojlanish 10-15 kunga cho'ziladi. Lichinka tuxumdan

**18-** 20°S ga etgach paydo bo'ladi va bir necha soat o'tanda bargga joylashadi.

YOzda rivojlanishi 1 oygacha cho'ziladi. Bizning respublikamizda 5 avlod beradi.

Oqqanot rivojlanishi uchun havo namligi 80-85% bo'lishi lozim.

**Tur - Katta mandarin pashhasi — *Tetradacus Chen***

**oila - chiporqanotilar - Tephritidae**

**turkum - ikkiqanotilar - Diptera**

Sitrus ekinlar-apelsin, mandarin mevalarini zararlaydi.

93

bnagosining tanasi oq jigarrangda, uzunligi 12-13mm, qanotlarini yozganda-20 mm keladi.

Qanotlari shoxsimon shaffof, oldingi uch qismi to'qroq. Qorni o'rtasida vertikal qorachiziq o'tgan. Tuxum qo'ygichi bigizsimon, qornidan 1,5 marta katta. YAponiyada tarqalgan shu zarakunandaga yaqin tur-Tetradacus Tsinjionis Miykening tuxum qo'ygichi bilan teng.

Tuxumi sutsimon oq rangda, keyin qizaradi. Oldingi nafas teshiklari birinchi ko'krak segmentlarini barmoqsimon o'simtalarida, T harf shaklida joylashgan. Anal teshigi o'tmas.


Tanasi 11 segmentdan iborat. Katta yoshdagi lichinkalar 2 mm uzunlikda.

Pupariysi to'q jigarrangda, bochkasimon, 10 mm uzunlikda bo'ladi.

Katta mandarin pashshasini g'umbagi tuproqda qishlaydi. Etuk urg'ocliilar aprel oyi oxirida paydo bo'ladi, tuxum qo'yishi may oyi o'rtasidan avgust oyi o'rtasigacha davom etadi.

Urg'ochilar uzun tuxum qo'ygichi bilan mevani yumshoq joyiga sanchib tuxumini qo'yadi.

Tuxumdan 15 kundan keyin lichinkalar chiqib 22-27 kun davomida oziqlanadi va mevani barbod qiladi. Zararlangan mevalar bemahal sarg'avib tushib ketadi. Lichinkalar g'umbakka aylanish uchun tuproqqa kiradi va qishlaydi. Har bir mevada 30 tagacha tuxum bo'lishi mumkin. (53-rasm)



**53-rasm. Mandarha katta pashshasi**

1. Sitrus ekinning zararli organizmlariga ta’rif bering?
2. Mandarin pashshasi morfoloyiyasini ayтиб bering?

#### **19- laboratoriya mashg’uloti SHoli ekinlarini zararli organizmlar va ularga qarshi kurash choralari**

**Kerakli jixozlar:** Binokulyar, termostat, avtoklav, pH-millivoltmetr elektrodi bilan, aniqlik tarozi, sterilizatsiya chirog'i, biologik xavfsizlik boksi ,spektometrofotometr, /upa, binokulyar, entomologik nina, rasmlli jadval, hasharotlarning ko‘rgazmali namunalari ***Organish ob’ektlari:*** Har xil hasharotlarning kolleksiyalaridan foydala

**Mining hajarish tartibi:**

**Tur - SHOLI SUV FILCHASI - *Nudronomus sinuaticollis Faust***

**oila - uzun burunlar - Sursulsionidae turkum - qattiqqanotlilar -**

**Soleortera**

c Qo‘ng‘izining kattaligi 4-5 mm ga etadi, urg‘ochisi erkagidan biroz kichikroq. SHoli suv filchasi qora rangli, tanasining usti mikroskopik mayda qo‘ng‘ir kulrang tangachalar bilan zich qoplangan. Ustki qanotlarida oqish tangacha dogMar mavjud. Qo‘ng‘izning mo‘ylovi va oyog‘i sarg‘ish qo‘ng‘ir tusda, bosh qismida xartumi uzunchoq bo‘lib, uchld qismi biroz yo‘g‘onlashga.n va egilgan. Mo‘ylovi tirsaksimon bo‘lib, 8-10 bo‘g‘imdan iborat.

SHoli suv filchasi tuxumlarini poyaning ildiz bo‘g‘iziga qo‘yadi. Lichinkasining uzunligi 7-8 mm, eni 2 mm gacha boradi. Lichinkasining rangi oq, bosh qismi sarg‘ish, birinchi ko‘krak bo‘g‘imining ustki qismi sariq qalqon bilan qoplangan, oyog‘i yo‘q. Lichinka tanasining sirti mayda mikroskopik tikansimon tukchalar bilan qoplangan, orqasidagi va ikki yonidagi tukchalar


ingichka va uzunroq bo‘ladi. Qomining 3,4 va 5 bo‘g‘imi yon tomonida bittadan nayza uchli uchburchak shaklida sarg‘ish tikancha joylashgan. Lichinkaning yuqori labi 4 burchak shaklda bo‘lib, oldinga tomon chiqib turadi, yuqori jag“i esa uchburchak shaklda bo‘ladi.

SHoli filehasi voyaga etgan lichinkalik bosqiehida sholipoyadagi sholi ildizida va tuprog‘ida qishlaydi. Erta ko‘klamda qishlov joyida g‘umbakka aylanadi. SHoli o‘sса boshlaganda g‘umbakdan imogalar chiqa boshlaydi.

Qo‘ng‘iz o‘simglik suv osti qismida 10-12 soatlab o‘nnalab yura oladi, suv betiga chiqib traxeyasiga havo to‘ldirib oladi va yana suv ichiga tushadi.

Qo‘ng‘iz va lichinkalari faqat sholi o‘simgilini kemirib oziqlanadi.

SHoli suv filehasi bir yilda bir marta avlod beradi.



54- rasm. SHoli suv buruni

#### Tur - SUV BO‘YI CHIVINI - *Ephydria macellaria Egg.* oila

##### - g‘alladoshlar Oscinella turkum - ikki qanotlilar - Diptera

Bu zararkunanda Toshkent viloyatidagi va Qoraqalpog‘istondagi sholikorliklarda sholi maysasiga ancha zarar etkazadi, buning natijasida ba’zan anchagina erdagи sholini qayta ekishga to‘g‘ri keladi.

Suv bo‘yi chivini Polearktikaning cho‘l hududlarida ancha keng miqiyosda tarqalgani. O‘zbekistonning O‘rta CHirchiq tumanida, Tojikistonning pastqam erli tumanlarida va Qoraqalpog‘istonda uchraydi.

Bu chivin 4 **mm** kattalikda, ko‘krak va qorni yashilsimon metall tusda, oyog‘i qizg‘ish yashil; o‘rta orqasida beshta dorzoventral qalqoni bor, qalqonining chetlarida to‘rtta dag‘a.l tukcha joylashgan; oyoq panjasidagi tirnog‘i to‘g‘ri va bulaming orasida so‘rg‘ichi yo‘q. Qanotidagi suyaksimon tomiri ikki joyidan

uzilgan, anal tomiri ajin shaklida, qanotida keyingi asosiy va anal yacheykalar yo‘q. Tuxumi hozircha ta’riflanmagan.


Lichinkasining bo‘yi **7 mm** gacba keladi, odatda orqa tomoniga egiigan, tanasining oxirida o‘sig‘i bor, mana shu o‘sig‘i uchida ikkita tmbkacha joylashgan, trubkacbalar uchida riafas oiish teshigi bor. Lichinkaning rangi xira-sarg‘ish tusda, lupasiz qaralganda tanasidagi ko‘pdan-ko‘p och jigar rang mayda tukchalar tufayli kul rang bo‘lib ko‘rinadi. Lichinka orqasining o‘rta qismidagi segmentning har birida tanasidagi tangachalarning bir-biri ustiga minib joylanishidan hosil bo‘lgan to‘q jigar rang piyolachasimon gullar (chizmalar) bor, tanasi 12 ta segmentga bo‘lingan; ost tomonida to‘qqiz juft soxta oyog‘i bor, oyoqlarining uchida ikki qator qora ilmoqchalari joylashgan, shu bilan birga, so‘nggi juft oyog‘ida bu ilmoqchalari juda sust rivojlangan; soxta oyog‘ining sakkizinchi juftida ilmoqchalaming ikkita qo’shimcha qatori (jami to‘rt qator) bor, shu sakkizinchi juft oyog‘idagi ilmoqchalaming uchi oldinga qayrilgan; boshqa oyoqlaridagi ilmoqchalaming uchi orqaga qaragan.

CHivinning soxta pillasi uchida ortig‘i bor, bunda soxta oyoqlaridan faqat oltinchi va sakkizinchi jufti saqlanib qolib, qolganlari yo‘q bo‘lib ketadi, bulaming faqat ilmoqchalax-igina sal-pal bilimb turadi; pillaning shakli cho‘ziq, oldi tomoni ingichkaroq; rangi to‘q \*jigar rang bo‘ladi.

Suv bo‘yi chivininining biologiyasi hozircha tekshirilmagan. Bu zararkunanda suv havzalarida rivojlanadi; voyaga etgan chivinlar suv betiga, sholi maysasiga va ariq chetlaridagi o‘tlarga qo‘nib yashaydi. Bu chivin o‘z tuxumini sholikorliklardagi suvda o‘sadigan o‘tlarga qo‘ysa kerak; lichinkasi tuproqning qatlamida ancha uzoq vaqt yashay oladi, suvda tez suzadi. Suv o‘simliklarida g‘umbaklanadi, bunda oltinchi va sakkizinchi juft oyog‘i orasidagi o‘yig‘i bilan o‘stmlikka yopishadi. Suv bo‘yi chivininining yangidan o‘zlashtirilgan erlarga ekilgan sholilarga zarar etkazganligi aniqlangan; eski sholikorliklarda bu chivinning ko‘plab urchiganligi hozircha ko‘rilgan emas. Suv bo‘yi chivinidan sholilarning shikastlanish hodisasi iyundan keyin to‘xtaydi; taxminan maMumotlarga qaraganda chivinning iyundan keyingi avlodи ariq bo‘yida va suvda o‘sadigan o‘simlidarda rivojlansa kerak.



55-rasm. Suv bo'yi chivini



56-rasm. SHoli uzunburuni

**Tur - SHOLI UZUNBURUNI - *Salandra oryzae L.***

**oila - uzunburuniar - Sursulionidae turkum -**

**qattiqanotlilar - Soleortera**

Uzunligi 3 mm chiqadi. tanasi cho'ziq, jigar rang tusda, xartumi uzun. Qanot ustliklarida ikkitadan qizg'ish dog'i bor, orqasining oldingi qismi yumaloq nuqta shaklida chuqurchalar bilan zich qoplangan, qanot ustliklarida uzunasiga joylashgan egatchalari bor, ikkinchi juft qanotlari yaxshi rivojlangan, ucha oladi. Urg'ochisi 500-600 ta tuxum qo'yadi.

**Topshiriq.** Gurux talabalarini 2 ta guruxga bo'lib “B/B/B/” jadvalini to'ldiring.

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oidim

**Nazorat savollari:**

1. SHoli suv filchasining morfologik belgilari?
2. Suv bo'yi chivinining morfologik belgilari?
3. SHoli zararkunandalarining bioekologiyasi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar hamda axborot manbaalari RO‘YXATI**

1. Alimuhamedov S.N., Xo‘jaev SH.T. - “G‘o‘za zarakunandalari va ularga qarshi kurash” - T.: “G‘qituvchi” 1991.
2. Kimsanboev X.X. va boshqalar. Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi. Koiledjlar uchun Toshkent, 2002.
3. Xasanov B.O, Hamroev A.SH va boshqalar. G‘o‘zaning zararkunanda, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish. Toshkent, 2002.
4. Xolmurodov E.A., Zuparov M.A. va boshqalar. Qishloq xo‘jalik fitopatologiyasi. T.: “Navroz”, 1997.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -- 56 b.
6. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “G‘zbekiston” NMIU, 2017.-47 b.
7. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz « bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 485 b.
8. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 103 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada. rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
10. Alimuhamedov S.N., Xo‘jaev SH.T. - G‘o‘za zarakimandaari va ularga qarshi kurash - T. 1991.
11. Boltaev B.S. Bo‘riev X.CH., G‘oftirova L.A. - G‘o‘zani zararkunandalardan uyg‘unlashtirilgan tarzda himoya qilishda biologik usulning qo‘llanishi. Ko‘rgazmali qo‘llanma. Toshkent, 2002.
12. Boltaev B., Tursunov I.- Qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunanda kasallik va begona o‘tlarga qarshi kurash choralarini o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma (tavsiyanoma) O‘simgiklami ximoya qilish markazi. Samarkand, 2008y. 14bet,
13. Boltaev B.Xududiy agronomlar nazaratchilar va biolaboratoriya

xodimlari uchun qo'llanma(tavsiyanoma) Samarkand 0'simliklami ximoya qilish markazi 2008y 8 bet.

14. Karimov I.A. «Barkamol avlod- 0'zbekiston taraqqivotining poydevori». Toshkent, 1997.
15. Kimsanboev X., Rashidov M., Sulaymonov B. - G'o'za zararkunandaligiga qarshi biolaboratoriyalarda Hasharotlami ko'paytirish va qo'llash asoslari.(0'quv qo'llanma). «Talqin» nashriyoti. Toshkent, 2007 y
16. Kimsanboev X.X., Xalilov Q. va boshqalar - 0'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish. "Mur" nashriyoti. Toshkent, 1998. Uslubiy qo'llanma.
17. Kimsanboev X.X., Sulaymonov B.A., Boltaev B.S.Zamita paslyonovbix оюощых kultur i lcartofelya ot vrediteley i Balezney.(posobie dlyafermerov) Qoilanma Toshkent 2013 y.
18. Kimsanboev X.X., Yo'ldoshev A. va boshqalar - 0'simliklarni kimyoviy himoya qilish, - T.: "0'qituvchi",1997. Kimsanboev X.X., Yo'ldoshev A. va boshqalar - 0'simliklarni kimyoviy himoya qilish, - T.: "0'qituvchi",1997.
- 19.0'simliklami zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risidagi 0'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent,2000.
- 20.0'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligidagi o'simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o'tlariga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o'simliklarning o'sishini boshqaruvchi vositalar ro'yxati. Toshkent -2016
21. Xamraev A.SH., Nasriddinov K. 0'simliklami biologik ximoyalash. (o'quv amaliy qo'llanma) «Xalq merosi», 2003. 287 b.

22. YUsupov A.X., Kimsanboev X., B Sulaymonov B.- Bog' zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralar (O'quv qo'llanma) 0'zbekiston Milliy enseklopediyasi Davlat ilrniy nashriyoti. Toshkent 2007y. 95 bet.
- 23.Ochilov R., B.Boltaev.- Sarnarqand viloyati sharoitida g'o'zada o'rgimchakkanaga qarshi kurash choralar.(fermerga tavsiya). Samarqand- 2012.
24. Ochilov R., B.Boltaev va boshq.- Buxoro viloyati sharoitida g'o'zada o'rgimchakkanaga qarshi kurash choralar. (fermerga tavsiya).Buxoro- 2012.

**biterenet sayflari:**

- 1 • [w/w.touca:nsolutions.com/Dat/i:nsects.htm](http://w/w.touca:nsolutions.com/Dat/i:nsects.htm)
2. [www.toucaxisol'utions.corn/pat/irisecls.btml](http://www.toucaxisol'utions.corn/pat/irisecls.btml).
3. [www.ft.edu/tft/hotlists/insects.htm](http://www.ft.edu/tft/hotlists/insects.htm).

**MUNDARIJA**

	Foydalanilgan adabiyotlar	4
	Kirish	6
1	Qishloq xo‘jalik ekinlarining zararkunand alarming tur tarkibini aniqlash	7
2	Zararli organizmlami ekinlarga iqtisodiy zarar etkazish bo‘sag‘asi	10
3	Zararli organizmlarga qarshi kurash usullari	13
4	Biolaboratoriyada sitotroga va mum kuyasini ko‘paytirish texnologiyasini o‘rganish.	23
5	Biolaboratoriyada trixogramma ko‘paytirish texnologiyasi bilan tanishish	25
6	Biolaboratoriyada brakonni ko‘paytirish texnologiyasi bilan tanishish.	29
7	Biolaboratoriyada oltinko‘zni ko‘paytirish texnologiyasi bilan tanishish.	34
8	Mexanik kurash usuli vositalari bilan tanishish	37
9	G‘o‘zani zararkunanda organizmlar va ularga karshi choralar.	39
10	G‘alla va dukkakli ekinlami zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	45
11	Em xashak ekinlarining zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	54
12	Poliz ekinlarini zararli organizmlar va ularga karshi choralar	60
13	Issikxona sabzavot ekinlari zararli organizmlar va ularga karshi kurash choralar	63
14	Sabzavot va kartoshka ekinlarini zararli organizmlar va ularga karshi choralar	68
15	Moyli ekinlaming zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	74
16	Tokning zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	78
17	Mevali ekinlami zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	84
18	Sitrus ekinlarini zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	88
19	SHoli ekinlarini zararli organizmlar va ularga karshi choralar.	91

A.XUDOY QULOV, N.IRGASHEVA, S ,UBAYDULLAEV, A.  
NORQULOV

**O ‘STMLIKLARNI ZARARLI  
ORGAMZMLARDAN  
UYG‘UNLASHGAN HIMOYA QILISH**

o‘quv qo‘llanma

£

0‘zbekiston Matbuot va axborot agentJiginmg «Fan ziyosi» nashriyotiga 2021 yil  
14 fevralda berilgan 308197041-sonli litsenziyasi Nashriyot manzili: Toshkent  
shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 30 uy.

Ofset qog‘izi. Bichimi 60x84/16 Times garnitnrasida ofset usuli. Shartli bosnia  
tabog‘i 10,75 Buyurtma № 9127075. Adadi 50 nuxsada «Munis design group»  
MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
100000 Toshkent sh., Buz-2 mavze. 17-A uy.